

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY - IQTISODIYOT FAKULTETI

IJTIMOIIY ISH YO'NALISHI

IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

**Alohida ehtiyojli kishilar bilan ijtimoiy ish olib borishda jahon
tajribasini o'rganishning ahamiyati**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Mamanova Yu.

Ilmiy rahbar: ass. Tangirova M.

**Malakaviy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2013 yil ___ ___dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayyonnoma№___).**

Kafedra mudiri:

dots.Jo'rayev L.N.

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2013 yil ___ ___dagi majlisida
himoya qilindi va ___ foizga baholandi (bayyonnoma №___).**

**Samarqand – 2013.
MUNDARIJA**

Kirish.....	3-6
I-bob Alohida ehtiyojli kishilarni o'rganish – ijtimoiy ishning asosiy vazifalaridan biri sifatida	
1.1. Alohida ehtiyojli kishilar haqida tushuncha.....	7-13
1.2. Ijtimoiy ish xodimi – alohida ehtiyojli kishilarni o'rganuvchi qatlam sifatida.....	14-25
II-bob Alohida ehtiyojli kishilar bilan ijtimoiy ish olib borişning xoriжий мамлакатлар тажрибаси.	
2.1. Alohida ehtiyojli kishilarning G'arb jamiyatida o'rganilishi.....	26-41
2.2. Alohida ehtiyojli kishilarni o'rganishda Yaponiya tajribasi.....	42-50
Xulosa.....	51-55
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	56-57

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Bozor munosabatlariga o'tishning ilk davridan boshlab aholini oldindan ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rib borildi. Shu maqsadda miqdori muntazam o'zgartirib turilgan ish haqi va pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar, kompensasiya to'lovlari tarzidagi pul to'lovlari, imtiyozlar turli dotasiyalar tarzidagi to'lovlarni joriy qilish usuli keng qo'llanildi.

Eng kam ish haqi va pensiyalardan soliq olinmaydigan bo'ldi. Korxonalarining o'z xodimlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish sohasidagi xarajatlaridan bir qismi byudjet mablag'lari hisobidan qoplanib turildi. Keng iste'mol mollari va xizmatlarning ko'pgina turlari bo'yicha narxlardagi tafovutlarning o'rni davlat byudjeti hisobidan qo'plandi. Shu bilan birga qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlar ham joriy qilindi. Masalan, birinchi — beshinchi sinf o'quvchilari va yolg'iz pensionerlar uchun bepul nonushtalar, 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul ovqat, maktab o'quvchilari va talabalar uchun ovqatning arzonlashtirilishi kabi imtiyozlar berildi. Shuningdek, ko'pgina toifadagi fuqarolarga turar joyi bepul shaxsiy mulk qilib berildi, ba'zi turdagi kommunal xizmatlar haqini to'lashda yengilliklar joriy etildi va xokazo.

Islohotlarning birinchi bosqichida aholini ijtimoiy himoyalash yulida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Narxlarning erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi keskin ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasi muntazam ravishda oshirib borildi. Bu sohada 1993 yil yanvarda joriy etilgan yagona tarif setkasi barcha xodimlarning mehnat haqi miqdorini tarif koeffitsiyentlari orqali va eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi. Eng kam ish haqini oshirish yuli bilan aholining o'rtacha ish haqi, pul daromadlari ham ko'tarila bordi.

1995 yilda respublika davlat byudjetining 29,3 foizi ijtimoiy-madaniy tadbirlarga, 21,8 foizi esa ijtimoiy himoyaga ajratildi.

1992—1998 yillar mobaynida ish haqi va pensiyalarning eng kam miqdori bir necha bor oshirildi. Masalan, eng kam ish haqi 1995 yilda 1994 yilga nisbatan 2,5

marta ortdi, 1996 yilda esa 1995 yilga nisbatan 2,7 marta ko'paydi. Nafaqaxurlarning ijtimoiy ahvolini e'tiborga olib, eng kam pensiya miqdori ish haqining eng kam miqdoridan oshikros bulishi muttasil ta'minlanib kelindi. Bu yul ijtimoiy adolat tamoyillariga juda mos kelar edi. Masalan, 1998 yil iyuldan ish haqining eng oz miqdori 1100 sum bo'lgani xolda, qarilik pensiyasining eng kam miqdori 2100 sumni tashkil etdi.

Mamlakatning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda ozik-ovqat mahsulotlari va noozik-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saklab turish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar aholini ijtimoiy himoyalab turadi.

1992—1994 yillarda non va un mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut, qand-shakar, o'simlik moyi, kir sovun, bolalarga kerakli ayrim mollar, kommunal va transport xizmatlari uchun davlat dotasiyalari qisman saqlab turildi. Bu aholiga ijtimoiy jihatdan katta yordam bo'ldi. Daromad darajasi turlicha bo'lgan oilalar bulardan bir qadar foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Dastlab murakkab bir paytda iste'mol mollarni sotib olish uchun bir marta, so'ngra esa ko'p marta ishlatiladigan kuponlarni muomalaga kiritish, kundalik zarur tovarlarning cheklangan turlarini me'yorlangan tarzda sotishni tashkil etish ko'zda tutilgan edi. U bozorni pishiq-puxta himoya qilibgina qolmay, savdo tarmogiga barcha zarur ozik-ovqat mahsulotlarini va kundalik xarid mollarni muntazam ravishda chiqarib turishni ta'minlash, ularni iste'mol qilish hajmlarini kamaytirmaslik imkonini berdi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Alohida ehtiyojli kishilarni o'rganish nafaqat mamlakatimizda balki jahonning barcha davlatlarida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy ish sohasida alohida ehtiyojli kishilarni o'rganish, ularni tadqiq qilish muhim masaladir. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari, G'arbiy Yevropa, Yaponiya va Janubiy Koreya singari davlatlarda ijtimoiy ish sohasi, alohida ehtiyojli kishilarni o'rganish muhim hisoblanadi. Mavzuning o'rganilganlik darajasini ko'rib o'tadigan bo'lsak, ushbu mavzu bo'yicha rus olimi N.I.Xarchev, Yaponiya olimi Tokochoero, ingliz olimi Smel Ueze, Amerikalik olim Jems Kudlar tadqiqot olib borganlar.

Islohotlarning ikkinchi bosqichiga o'tilgach, 1995 yildan boshlab oziq-ovqat mahsulotlarini me'yorlangan tarzda sotishdan voz kechildi va erkin narxlarga o'tildi.

Me'yorlash tizimiga barham berish, erkin narxlarni joriy etish tadbirlari aholi ta'minotini yomonlashtirmasdan, «esankirashlarsiz» amalga oshirildi. Buni O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining muhim natijasi deb baholash mumkin. Aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari ko'rildi;

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi: Alohida ehtiyojli kishilarni o'rganish, ularning muammolari bilan qiziqish tadqiqotimizning bosh maqsadidir. Ushbu yo'nalishda mamlakatimizda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Dunyoviy jamiyat hisoblanadigan Respublikamiz Xalqaro davlatlar va jamiyatlar bilan barcha sohalarda teng va keng hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Jumladan, ijtimoiy siyosat, yangi soha hisoblanadigan ijtimoiy ish kabi masalalarda o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yilib kelinmoqda.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari: Alohida ehtiyojli kishilarni o'rganishda Respublikamiz miqyosida bir qancha davlat va nodavlat muassasalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu muassasalar nafaqat alohida ehtiyojli kishilarni o'rganadi, balki ularni hayotga tengqurlari qatoriga qaytarish masalalari bilan ham shug'ullanadi. Bugungi kunda Respublikamizda olti mingga yaqin nodavlat-notijorat tashkilotlari mavjud bo'lib, shulardan ikki mingga yaqini alohida ehtiyojli kishilar bilan shug'ullanadigan tashkilotlardir. Shu o'rinda G'arb va Sharq jamiyatlarida ijtimoiy ish sohasini o'rganilish darajasi, alohida ehtiyojli kishilarning o'rganilishi, qiyosiy tahlil ishlarini amalga oshirish tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Malakaviy bitiruv ishining obyekt va predmeti: Alohida ehtiyojli kishilar ya'ni bolalar, o'smirlar, nogironlar, qariyalar, ayollar, mazkur bitiruv ishining obyekt hisoblanadi. Alohida ehtiyojli kishilar bilan shug'ullanadigan davlat va nodavlat muassasalari asosiy diqqat e'tibori ham ushbu guruh va qatlamlar

hisoblanadi. Alohida ehtiyojli kishilarning hatti-harakatlari, jamiyatdagi mavqeyi va o'rnini bitiruv ishining predmetini tashkil qiladi.

Malakaviy bitiruv ishining nazariy va metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, mamlakatimizda qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlar, qonunlar, kodekslar, Prezidentimiz farmonlari, asarlari hamda mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlar olimlarining mavzuga oid adabiyotlarda ilgari surilgan qarashlari ushbu mavzuni yoritishda nazariy va metodologik asos qilib olindi.

Malakaviy bitiruv ishida qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.

Tadqiqot ishida ilmiy bilishning turli bosqichlarida qo'llaniladigan hujjatlarni o'rganish va umumlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik kabi uslublarga tayanildi.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi;

Malakaviy bitiruv ishimiz 2 bob 4 paragraf, kirish va xulosa qismidan iborat: Ushbu boblarda nazariy adabiyotlarga tayanib maqsad va vazifa sifatida belgilangan muammolar yoritildi. Yuqorida keltirilgan fikrlarning asosini mavzuda atroflicha to'xtalib, ochib berishga harakat qilaman.

I. Alohida ehtiyojli kishilarni o'rganish – ijtimoiy ishning asosiy vazifalaridan biri sifatida.

1.1. Alohida ehtiyojli kishilar haqida tushuncha.

«Biz, — degan edi I. Karimov, — aholining ijtimoiy jixatdan nochor tabaqalari — pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, uquvchi yoshlar, shuningdek qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilarni himoya qilish davlatning muqaddas burchidir, degan qoidaga asoslanib ish tutdik».

Alohida ehtiyojli kishilarga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat davlatimizning ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi. Alohida ehtiyojli kishilar deganda biz jamiyatning yordamga muhtoj bo'lgan qatlamini anglamog'imiz kerak. Ya'ni ularga bolalar, o'tish yoshidagi o'smirlar, nogironlar, qariyalar, kam ta'minlanganlar va ayollar kiradi. O'zbekistonda tugilish ko'p bo'lgani va aholining ko'pchilik qismini bolalar tashkil etgani uchun onalar va bolalar salomatligi muhofazasi hamisha eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib keldi. Onalar va bolalar sog'lig'ini saq'lash, ularga tibbiy yordam ko'rsatish ishlarini uyushtirish va rivojlantirishda tibbiyot oliy o'quv yurtlarining pediatriya, akusherlik va ginekologiya kafedralari, shuningdek ixtisoslashgan ilmiy-tadkikot institutlari — pediatriya, akusherlik va ginekologiya institutlari katta rol o'ynadi. Onalikni muhofaza qiluvchi va ixtisoslashgan pediatriya yordami ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'i kengaydi. 1995 yildan 109 dan ziyod ayollar konsultasiyalari yoki akusherlik yukologiya kabinetlari, 1800 dan ortiq bolalar poliklinikalari (maslahatxonalar) ish olib bordi, kasalxonalarda bolalar uchun ajratilgan o'rinlar soni 1507 mingtaga yetdi. Turmushga aloqador masalalar yo'z asidan maslahat beradigan «Nikoh va oila» maslahatxonalar va tibbiy-genetik maslahatxonalar ochildi.

Ish haqqini oshirish bilan birga barcha toifadagi maktablarning muallimlari, bolalar uylari, maktabgacha va maktabdan tashkari muassasalar tarbiyachilari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari, ijodiy va tibbiy xodimlarni ijtimoiy himoyalash va ularning mehnatini

ragbatlantirish maqsadida ularga kushimcha moddiy ne'matlar — kvartira haqi va kommunal to'lovlar sohasida imtiyozlar berildi, yakka tartibda uy-joy ko'rib olish uchun yer uchastkalari birinchi navbatda ajratiladigan bo'ldi. Masalan, 120403 o'qituvchining davlat va tashkilotlar tomonidan berilgan uylari bepul xususiyashtirildi, 35841 kishiga shaxsiy qurilish uchun yer uchastkasi berildi, 489256 o'qituvchi imtiyozli kommunal xizmatdan, 83353 o'qituvchi shahar transportidan bepul foydalanayotir. Ayni chog'da yolg'iz pensionerlarni turar joy va kommunal xizmatlar uchun haq to'lashdan ozod etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Ular dori-darmonlar va eng zarur mollarni belgilangan me'yorda bepul olish va jamoat transportida tekin yurish huquqidan foydalanadigan bo'ldilar. Ularga madad berish uchun respublikada maxsus ijtimoiy yordam bo'limlari to'zildi. Bu bo'limlar yolg'iz pensionerlar va nogironlarning uyida ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatishni uyushtirmoqda.

Respublikadagi 27 mingdan ko'proq yolg'iz qariyadan 24 ming nafardan ko'proq'i o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lganligi sababli ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatadigan xodimlar birlashtirildi, 3 mingdan ortiq yolg'izlarga ijtimoiy-maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatilmoqda.

Yoshlarni ijtimoiy himoyalashga, ularga ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qib, bilim olish uchun zarur sharoit yaratishga e'tibor berildi. 1992—1997 yillarda stipendiyalar bir necha marta oshirildi. O'quv dargohlari oshxonalaridagi narxlar arzonlashtirildi. Milliy an'analar nazarda tutilib, birinchi bor Nikohdan o'tayotgan kelin-kuyovlar mebel va gilam maxsulotlari sotib olishda imtiyozli tartibdan foydalandilar.

1994 yil 24 avgustda Prezidentning «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra 1994 yilning oktyabridan O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tubdan o'zgartirildi. Ilgari faqat respublika byudjeti yo'li bilangina 30 ta turli soha va yunalishlar bo'yicha ijtimoiy himoya amalga oshirilardi, bu esa mablag'ning sochilib ketishiga olib kelib to'la samara bermayotgan edi. Yangi tizimning mohiyati shundan iboratki, bolalar va kam

daromadli oilalar ijtimoiy yordamdan bahramand buluvchi asosiy kishilar bo'olib koldi. Ijtimoiy yordam anik maqsadli va aholining ma'lum tabaqalarini qamrab oladigan bo'ldi. Endi moddiy yordam mahxalla tomonidan oila orqali yetkazib beriladigan bo'ldi. Oila asosiy mavqega ega bo'ldi. Bunday yondoshuv umuminsoniy qadriyatlarga, milliy an'analarga va ruxiyatga mos keldi.

Ijtimoiy himoyalashning yangi tizimida farzand tugilganda, bir yo'la beriladigan to'lovlar saqlab qolinishi bilan birga nafaqalar va imtiyozlarning quyidagi turi ham amalga oshiriladigan bo'ldi. Masalan, bola boquvchi onalarga to'lanayotgan nafaqaning miqdori ko'paytirilibgina qolmay, uning muddati ham o'z aytilirdi. Ilgari bunday yordam bir yarim yilgacha to'langan bo'lsa, endi bu muddat ikki yilgacha o'z aytilirdi. Ishlovchi onalar ham, ishlamaydigan onalar ham, bu nafaqadan foydalanadigan bo'ldilar», Masalan, 1995 yil ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'ning 3 foizi onalarga ikki yoshgacha farzandlarini parvarish qilish uchun ajratildi. Boshqa davlatlardan farqli o'laroq, O'zbekistonda bu nafaqa ish haqining eng oz miqdoriga bogliq qilib qo'yildi.

1995 yilda 500 mingdan ortiq extiyojmand oilalarga mahalla qo'mitalari orqali jami 6 milliard so'm moddiy yordam berildi.

1996 yil 10 dekabrda bolali oilalarga ijtimoiy yordam berilishini kuchaytirish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining roli va mas'uliyatini oshirish maqsadida «Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida» yana bir muhim Farmon qabul qilindi¹. Unda 1997 yil 1 yanvardan boshlab fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish yiginlari orqali yordamga muhtoj, bolali oilalarga bolalarning soniga karab eng oz ish haqining 50 foizidan boshlab 175 foizigacha nafaqalar beriladigan bo'ldi. Bu borada ijtimoiy adolat tamoyillariga og'ishmay rioya etish, keng oshkoralik va ochiqdikni ta'minlash, ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishga erishish lozimligi qayd qilindi.

¹ «Ўзбекистон овози» 1996 йил 12 декабр.

Davlat mustahkamlana borgan sari uning xalqparvarlik siyosati yanada kuchaydi. Prezidentning 1995 yil 20 dekabrda chiqargan «Aholining omonatlardagi va davlat sug'urtasi bo'yicha pul mablag'larini indeksasiya qilish to'g'risida»gi Farmoni ana shunday insonparvar siyosatning yorqin dalili bo'ldi. Farmonga binoan 1992 yilning yanvariga qadar jamgarma bankiga pul qo'ygan millionlab fuqarolarning mablag'lari yana qadrlandi. Farmon asosida Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror qabul qildi. Mazkur Farmon va qaror vatanimizda yashayotgan bironta keksayu yoshni befarq qoldirmadi. 5 milliondan ortiq omonatchilar o'z pullarini qaytarib olishdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 41-moddasida «Aholi malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga haqlidir», — deb yozib qo'yilishi katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasida Sog'liqni saq'lash tizimining asosiy vazifasi qilib kasalliklarning oldini olish, xastalarni davolab dardsan forig' qilish, yashash muxitini soglomlashtirishdan iborat qilib belgilandi. Bunda xalq tabobatining boy an'alariga, ilm fan va texnikaning ilg'or yutuqlariga, olim va mutaxassislarning zakovatu salohiyatiga suyanish ko'zda tutiddi. O'zbekiston o'z istiqloliga ega bo'lgandan so'ng ijtimoiy sohadagi eng muhim masala sifatida Aholi SOG'LIQNI saq'lash mamlakat Prezidenti va xukumatining doimo diqqat, e'tiborida bo'ldi.

1991 yilga kelib O'zbekistonda kasalxonalar soni 1370 taga, o'rinlar soni 256,6 mingga, vrachlar soni esa 71,1 mingga yetgan edi. Sovetlar tuzumi davrida sog'liqni saq'lash tizimi kengaygan bo'lsada, lekin yerga turli xil kuchli ximikatlar solinishi, paxta yakka hokimligi va boshqa ijtimoiy okibatlar natijasida Aholi orasida kasalliklar ko'payib ketgan edi. O'zbekistonda har yili 8 millionga yaqin kishi xastaligi tufayli tibbiy muassasalarga murojaat etib, shulardan 240 ming kishi yuqumli kasalliklar (shularning 120 mingi gepatit) bilan og'rib turdi, ayni vaqtda ularning 70 foizi bolalar edi. Go'daklar orasida o'lim yangi tugilgan yar 1000 bola hisobidan olganda 35,5 nafarga to'g'ri keldi. Har yili o'rta hisobda 24 ming bola bir yoshga yetmay o'lib ketardi. Onalar o'rtasidagi o'lim tirik bola tuqqan 100 ming ayol hisobiga 65,3 taga to'g'ri kelardi. Odamlarning o'rtacha umri jahonning

rivojlangan mamlakatlari — Yaponiya, Shvesiya, Buyuk Britaniya va Boshqalarga kiyosan olganda 8—10 yil kam edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng aholining salomatligini muhofaza qilish muammolari qaytadan ko'rila boshlandi¹. Bunda taraqqiyotning ekstensiv yo'lidan voz kechib, intensiv yo'lga o'tish, ayni vaqtda sohaga mo'ljallanadigan mablag'ni respublika aholisining har bir jon boshi hisobidan ajratish, sog'liqni saq'lash ishining asosiy omili — profilaktik yo'nalishni tiklash, onalar va bolalar muhofazasini kuchaytirish, tibbiy ta'lim tizimi va kadrlar siyosatini isloh qilish, mamlakatda yetarli dori-darmon, tibbiyot ashyolari hamda texnika vositalari ishlab chiqaradigan sanoat vujudga keltirish, Sog'liqni saq'lash muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, davolash-profilaktika muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarib, mulkchilik shaklini o'zgartirish va sug'urta tabobatiga o'tish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Sog'liqni saq'lash extiyojlari uchun 1994 yili milliy daromadning 4,1% miqdorida mablag ajratilgan bulsa, 2000 yilga borib u (baxolar o'z garishini ham hisobga olgan holda) 6,5—7% ni tashkil etishi ko'z da tutildi¹.

Aholi sog'lig'ini muhofaza qilish ko'p jixatdan davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatiga bog'liq. O'zbekistonda sanitariya-epidemiologiya stansiyalari va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning tashkiliy-metodik va muvofiqlashtiruvchi ishlarini olib boradigan «Salomatlik» markazlari bu vazifani amalga oshira boshladi. 1991 yili Toshkentda diagnoz qo'yish bo'yicha respublika aholisiga xizmat ko'rsatuvchi «Diagnostika» markazi ishga tushirildi. 1995 yil oxiriga kelib dispanser nazorati o'rnatildi. Ishchilarga davolash-profilaktika xizmati ko'rsatish, xususan, sanatoriy-profilaktoriylar tarmog'i kengaytirildi. 1991 yildan ommabop «Sixat-salomatlik» jurnali (bosh muharriri Nabi Majidov) nashr etila boshladi.

O'zbekistonda tugilish ko'p bo'lgani va aholining ko'pchilik qismini bolalar tashkil etgani uchun onalar va bolalar salomatligi muhofazasi hamisha eng muhim

¹ Karimov I.A. Biz qurish va yaratish yo'lidan boraveramiz. T. «Ўзбекистон» 1995.

va dolzarb masalalardan biri bo'lib keldi. Onalar va bolalar sog'lig'ini saq'lash, ularga tibbiy yordam ko'rsatish ishlarini uyushtirish va rivojlantirishda tibbiyot oliy o'quv yurtlarining pediatriya, akusherlik va ginekologiya kafedralari, shuningdek ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari — pediatriya, akusherlik va ginekologiya institutlari katta rol o'ynadi. Onalikni muhofaza qiluvchi va ixtisoslashgan pediatriya yordami ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'i kengaydi. 1995 yildan 109 dan ziyod ayollar konsultasiyalari yoki akusherlik kabinetlari, 1800 dan ortiq bolalar poliklinikalari (maslahatxonalari) ish olib bordi, kasalxonalarda bolalar uchun ajratilgan o'rinlar soni 1507 mingtaga yetdi. Turmushga aloqador masalalar yo'zasidan maslahat beradigan «Nikoh va oila» maslahatxonalari va tibbiy-genetik maslahatxonalar ochildi.

Sog'liqni saq'lash tizimida kadrlar tayyorlash diqqat e'tiborda bo'ldi . O'zbekistonda 1995 yili barcha ixtisosliklar bo'yicha 75117 rach, 24 o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlari, 2571 farmasevt ishladi. Respublikada vrachlar sonining o'zi 1995 yili 1991 yildagiga qaraganda 106 foiz ko'paydi. 1995 yili O'zbekistonda 5608 oliy ma'lumotli mutaxassis, jumladan, davolash ishlari bo'yicha — 2517, pediatriya bo'yicha — 2083, gigiyena, sanitariya va epidemiologiya bo'yicha — 321, stomatologiya bo'yicha — 328, farmasiya bo'yicha — 359 mutaxassis tayyorlandi. «Davolash ishlari» ixtisosligi bo'yicha vrach kadrlar tayyorlash ishi 3 boskichdan iborat qilib belgilandi. Birinchisi — tabobat bo'yicha 5 yil davomida umumiy tayyorgarlik ko'rib , bakalavr, ya'ni vrach yordamchisi vakolatini oladi; ikkinchisi — to'latukis tibbiy ma'lumotga ega bo'lib, tibbiyot doktori darajasiga erishadi;

Uchinchisi — tibbiyot doktori tanlagan ixtisosiga karab 2 yildan 4 yilgacha muddat ichida magistraturada taxsil ko'ra di.

Magistraturada mutaxassis vrach tayyorlash eng yaxshi ilmiy maktablar va klinikalarda olib borildi. Ayni vaqtda zamonaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanila boshlandi. Shu bilan birga, mutaxassislarning malakasini tekshirib borish yoki oshirish maqsadida ular vakti-vakgida sinov (attestasiya)dan "Utkazib turildi.

Dorixonalar ishi va tibbiy texnika bilan ta'minlanish islohotlarning asosiy kismi bo'ldi. Agar Turkistonda birinchi dorixona dastlab 1874 yili Toshkent shaxrida ochilgan bolsa, 1996 yil oxiriga kelib ularning soni O'zbekistonda 3980 dan oshib ketdi. Oliy va o'rta ma'lumotli farmasevtlar va provizorlar soni SplM ancha ko'paydi. O'zbekistonda dori-darmonlar, tibbiy uskuna va apparatlarni ishlab chiqarishni yulga qo'yish maqsadida 1992 yili farmakologiya va farmakologiya qo'mitalari to'zildi. 1993 yili «Farmindustriya» konserni tashkil etildi.

Sog'liqni saq'lash tizimini tibbiyot sug'urtasiga utkazish va davolash-profilaktika muassasalarind davlat tasarrufidan chiqarish masalasi keyingi yillarda muhim masala bo'lib koldi. Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag' hisobida mavjud bo'lib kelgan sog'liqni saq'lash tizimida bozor munosabatlari shakllanib, iktisodiy islohotlar chuqurlashib borayotgan sharoitda tibbiyot sug'urtasiga o'tish uchun tayyorgarlik ko'rila boshlandi. Ayni vaqtda ko'p mamlakatlardagi sugurta xizmatlari tajribalari o'rganildi, turli idora va tashkilotlar bilan xo'jalik shartnomalari tuzildi. «Tibbiyot sugurta» sig'a o'tish davolash-profilaktika muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish bilan ham bogliq, chunki davlatga qarashli muassasalar bilan birga mulkchilikning har xil shakllariga asoslangan muassasalar, jumladan, xususiy muassasalar ham faoliyat ko'rsatib borishi kerak. O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 19 noyabrda qabul qilingan «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonuniga amal qilib, Sog'liqni saq'lash vazirligi manfaatdor idora va tashkilotlar bilan birgalikda Sog'liqni saq'lash muassasalarini xususiylashtirish tadbirlarini ishlab chiqdi. Xususiylashtirish dorixonalaridan boshlandi. 1996 yilga qadar mamlakatda 2200 dorixona xususiylashtirildi, 839 dorixonani o'z tarkibiga olgan 239 dorixona aksionerlik jamiyatiga aylantirildi.

Inson dunyoga kelib ketganga qadar davlatning ijtimoiy siyosatini himoyasi ostida bo'lish kerak. Insonni bolaligi ham, keksa yoshligi ham ijtimoiy siyosat obykti bo'lib kelgan. Chunki odamzot yoshligida va keksaligida yordamga muhtoj bo'lib qoladi. Lekin bolalik va keksalikni oiladan ajralgan holda ijtimoiy himoya qilgandan ko'ra ularni birgalikda oila doirasida ko'rib oilani ijtimoiy

himoya qilib uni mustahkamlab borsak natija ancha samaraliroq bo'lar edi. Shuning uchun bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimini oilani mustahkamlash orqali rivojlantirib borish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun esa jamiyatda oilaga yo'naltirilgan siyosat olib borilish lozim. Strategik maqsad bo'lgan oilani ijtimoiy institut sifatida mustahkamlash tug'ilish jarayonini tartibga olib asosan 3-4 bolali to'liq oilalarni qo'llab-quvvatlash taqozo etadi.

O'zbekistonning huquqiy davlat sifatida rivojlanishi jarayonida Prezidentimiz har bir fuqaroning manfaatini himoyalashda uning jinsi, millati, irqi, yoshidan qat'i nazar qonun ustuvorligini ta'minlashni asosiy omil sifatida belgilaganlar.

Bugun yurtimizdagi har bir bolaga davlatimizning barcha haq-huquqlaridan to'liq foydalanadigan fuqarosi sifatida qaralishini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga davlat tomonidan ratifikasiya qilingan "Bola huquqlari to'grisidagi Konvensiya" tamoyillari asos qilib olingan. Bu:

- kamsitmaslik masalalari
- yashash va rivojlanish
- bolaning shaxsiy manfaati
- bolaning dunyoqarashi

kabi jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Mazkur tamoyillarni amalda qo'llash jarayonida bu vazifaning oson emasligi bilinadi. Bu borada quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin:

Masalan, internat muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning ko'pchiligini nogiron bolalar tashkil etadi. Xalqaro tashkilotlarning tavsiyanomalarida deinstitutionalashda inklyuziv metodni asosiy usul sifatida tatbiq qilish kerak, deyilgan. Xo'sh, kar o'quvchining uyidan uzoqda o'qitilishi uning konvensiyadagi haq-huquqlarini buzadi, deyish mumkin-mi? Biz "ha" deb javob beramiz. Chunki bolani "kamsitmaslik" tamoyili va oilasi bilan yashash huquqidan mahrum etayapmiz. Agar bolani uyiga yaqin joylashgan qishloq umumta'lim maktabida 35 nafar o'kuvchi ta'lim olayotgan sinfda o'qishga qoldirsak, bunda

uning "shaxsiy manfaatlari" tamoyilini buzgan bo'lamiz. Bola bu yerda o'ziga yetarli e'tiborni olmaydi. Maktabda defektologlarning yo'qligi uchun o'quvchi maxsus muassasadagidek ta'lim olmaydi, oqibatda rivojlanishda orqada qoladi va kasb egallashga tayyorlana olmaydi. Undan tashqari bu o'rinda bolaning "Shaxsiy fikri" prinsipi buziladi.

Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, kar bolalarning 99 foizi umumta'lim muassasalarida o'qishni xohlashmaydi. Ijtimoiy himoyalash bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarda turgan Shvesiyada ham vaziyat xuddi shunday ekan. U yerda har o'kuvchilar alohida maxsus internatlarda o'qitiladi. Huddi shu holni Respublikamizdagi aqli zaif o'kuvchilar uchun mo'ljallangan maktab-internatlarda ham kuzatish mumkin. Shunday maktablarning 1-sinflarida umuman gapira olmaydigan, jismoniy rivojlanishida nuksoni bo'lgan va xulki buzilgan bolalarni ko'rish mumkin. Bunday ta'lim muassasalarining 9-sinflarida akli zaif bolalarning ijtimoiy moslashtirilganligi, kasb olishga tayyorlangan va sog'lig'i tiklanganligini kuzatish mumkin. Bunday bolalarning ko'pchiligi kelajak hayotida kollejlarni tugatib, oila kurib, mustaqil hayot kechirib keta oladilar. Bu kabi natijalarga ommaviy maktabda ta'lim olgan akli zaif bolalar erishishi mushkuldir.

Shu bois, deinstitutsiyalashga, inklyuziv ta'limni kiritishda muhitni chukur o'rgangan holda, extiyotlik bilan ish ko'rish zarur hisoblanadi. Zero, bizning asosiy maqsadimiz har bir bolaning o'z oilasida yashash va boshqa bolalar qatorida sifatli bilim olish haq-huquqlarini ta'minlashdan iboratdir. Buning uchun biz murakkab masalalarni hal qilishimiz, bu ishni turli yo'nalishlarda olib borishimiz lozim.

Bugungi kunda Respublikamizda 28 ta "Mehribonlik" uylari ish olib borayapti. Ularda 3037 nafar yetim va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar tarbiyalanmoqda.

23 ta sanatoriy turidagi maktab-internatlarda 7 000 nafar bola o'qib sog'lig'ini tiklamoqda.

18 ta kam ta'minlangan bolalar maktab-internatlarida 5 338 nafar o'quvchi ta'lim oladi.

86 ta maxsus maktab-internatlarda turli nuqsonli 19 245 nafar bolalar o'qitilmokda.

- himoyaga muhtoj bolalar guruhining ijtimoiy monitoringi;
- oilani qullash -institutsializasiyaning oldini olish sifatida;
- internat muassasalarning ish unumdorligini oshirish;
- bolalarni joylashda alternativ shakllarni rivojlantirish;
- inklyuziv ta'limni rivojlantirish;
- jamoatchilik bilan ishlash;

Bolalarni ijtimoiy himoyalash yo'lida olib borilayotgan ishlarning ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, himoyaga muhtoj bolalar guruhlarini ijtimoiy himoyalash monitoringini olib borish uchun tashkilotlararo ma'lumotlar tuzilib, viloyat, shahar, tuman xalk ta'limi, sog'liqni saqlash hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'limlari ishtirokida har bir nogiron bola bo'yicha ma'lumotlar banki tuzilgan. Xalq ta'limi bo'limlari xodimlari tomonidan har bir xonadon o'rganilib, nogiron bolalar aniqlab chiqildi. Natijada 4 750 nafar bola o'qishga jalb etildi. Shuningdek, monitoring natijalari uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiyaviy va tibbiy xizmatni baholash, xato ko'yilgan tashhisni aniqlash, tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyalarning ish unumdorligini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish uchun turtki bo'ladi. Vaziyatni o'rganish natijasida, bugungi kunda respublikamizda ta'limga jalb etilmagan bola deyarli yo'q, deb faxr bilan ta'kidlash mumkin.

Monitoring tizimini tashkil etish, "Mehribonlik" uylari, maxsus maktab, maktab-internatlar, sanitariya turidagi maktab-internatlar ish samaradorligini oshirish Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi hay'at yig'ilishida ham ko'rib chiqildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar guruhiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha "Mehribonlik" uylari va maktab, maktab-internatlar asosiy tizim

hisoblanadi. Alternativ xizmat ko'rsatish va inklyuziv ta'lim tizimiga o'tishda bu muassasalardagi bolalarni ham esimizdan chikarmasligimiz kerak.

Ayni paytda "Mehribonlik" uylaridagi yashash sharoiti jiddiy nazoratga olingan. Kun tartibi, ovqatlanish va taomlar xilma-xilligi, tibbiy xizmat ko'rsatish doimiy e'tiborda. Pedagogik, tibbiy va psixologik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha zarur talablar ishlab chiqilgan. Shularga qaramasdan oldimizda yechimini kutayotgan talaygina muammolar mavjud.

Tajribadan ko'rish mumkinki, maxsus maktab, maktab-internatlar va "Mehribonlik" uylarida ta'lim-tarbiya olayotgan bolalar oilasida yashayotgan, tashqi muhitga ijtimoiy moslashgan o'quvchilardan farq qilib, ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lmaydilar.

Ular bilimlarga ega bo'lsalar ham o'z dunyoqarashlarini, fikrlarini to'g'ri ifodalab, himoya qila olmaydilar. Kuzatishlar "Mehribonlik" uylarining o'quvchilari katta hayotga tayyor emasligini ko'rsatmokda. Bu dalillar dasturlarni yanada mukammallashtirish, mutaxassis pedagoglarni tayyorlash va boshqa ijtimoiy xizmatlarni kuchaytirishni taqozo etadi. Ayni paytda mazkur yo'nalishlarda ham ishlar olib borilmoqda.

Kasallikni davolashdan ko'ra uning oldini olish oson, deyiladi. Shu bois, Respublika hukumati tomonidan ijtimoiy himoyalanmagan bolalarga ko'rsatiladigan yordam samaradorligini oshirish bilan birga, oilani mustaxkamlash va ajrashishlarning oldini oldini olish bo'yicha zarur chora-tadbirlar o'tkazilmokda.

Bu fikrning isboti sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. 2003-2006 yillarda "Mehribonlik" uylarida tarbiyalanayotgan bolalar soni 611 nafarga qisqardi. Bu ko'rsatkichga, bolalarni ota-onalari, yaqinlari va qarindoshlari bagriga qaytarish natijasida erishildi. 2006 yilda kam ta'minlangan oilalarning 724.124 nafar farzandi 16 mlrd. so'm mikdoridagi kiyim-kechak bilan ta'minlandi. Shuningdek, 2006 yilda kam ta'minlangan oilalar bolalari 10 mlrd so'm miqdorida o'quv qurollari bilan to'liq ta'minlandi.

Respublikamizda yetim bolalar va ota-ona qarovsiz qolgan bolalarni boshqa alternativ yo'llar bilan joylash bo'yicha ham sezilarli ishlar olib borilmoqda. Bularga asrab olish, vasiylik va otaliqqa olish kabilar kiradi.

Hozirgi kunda asrab olingan bolalar soni 27591 tani tashkil etadi. Ular oilada yashab ta'lim olishadi. 36741 bola otaliqqa olingan. "Sog'lom avlod uchun" jamgarmasi tashabbusi bilan Uzbekiston hotin-qizlar qo'mitasi, Toshkent shahar hokimiyati va "SOS" Kinderford Interneshnl Xalqaro tashkiloti ishtirokida 2000 yilda "SOS-O'zbekiston bolalar shaharchalari" assosiasiyasi tashkil topdi. 2006 yilda Samarkand shahrida "SOS-bolalar mahallasi" o'z faoliyatini boshladi.

2000 yilda Uzbekiston Dakar deklarasiyasini imzoladi va 2003 yilda "Ta'lim hamma uchun " dasturi doirasida uni amalga oshirish rejasi ishlab chiqildi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan maxsus ta'limda o'qitishni inklyuziv va integrallashtirilgan ta'lim asosida olib borish ta'lim siyosatidagi asosiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limda inklyuziv yondoshish nafakat pedagogik, hissiy, psixologik jihatdan qulay, bu davlat uchun ham ancha arzon va samarali hisoblanadi. Bu vaziyatda mukammal tayyorlangan eksperimental loyihalar tuzilishi kerak, ular inklyuziv ta'limning ijobiy tomonlari amalda bajarilishini va ularning modellari tarqatilishini ta'minlashi lozim. Ayni vaqtda Xalq ta'limi vazirligi va halqaro tashkilotlar ishtirokida ta'limni rivojlantirish borasida quyidagi eksperemental loyihalar amalga oshirilmokda.

1. 2001 yilda YuNESKO tashabbusi bilan Respublika ta'lim markazi qoshida inklyuziv ta'lim yo'nalishi bo'yicha Resurs Markazi tashkil etildi.

Markazning maqsad va vazifalari imkoniyati cheklangan bolalarga davlat va nodavlat tashkilotlar, ota-onalar, ko'ngillilar tomonidan ko'rsatilayotgan yordam va tashabbuslarni umumlashtirish va jamlashtirishdan iboratdir. Markaz tomonidan umumta'lim hamda maxsus maktab o'kituvchi va rahbarlari uchun uslubiy ko'llanmalar ishlab chiqilmoqda va ularning pedagogik malakalarini oshirish maqsadida turli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2. Uzbekistonda inklyuziv-korreksion ta'lim va bolalar ta'lim muassasalarining asosiy tayanch punktlarini tuzish Xalk ta'limi vazirligi va

YuNESKO ning asosiy loyihasi hisoblanadi. Bu dasturni rivojlantirish maqsadida Fargona, Xorazm, Namangan, Surxondaryo, Andijon viloyatlarida inklyuziv ta'lim yo'nalishida Resurs Markazi tashkil etildi. Bu markazlar yordamga muhtoj bolalarni o'qitish, rivojlantirish va ularning reabilitatsiyasi bilan shug'ullanadi hamda inklyuziv yo'nalishdagi ta'limni davlat tashkilotlari va jamoatchilik bilan bo'lgan munosabatlar orqali rivojlantiradi.

3. "Opereyshen Mersi" xalqaro tashkiloti loyihasi bo'yicha Respublika ta'lim markazi va YuNESKO ishtirokida Xorazm viloyatining umumta'lim maktablari qoshida 5 ta integrallashtirilgan sinf va 10 ta inklyuziv guruhlar tashkil etilgan. Ayni vaqtda bu sinf va guruhlarda 50 nafar o'quvchi ta'lim olib, ularga maxsus pedagog birlashtirilgan. Xivada ota-onalar, pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun bir nechta seminar-treninglar tashkil etildi. Olib borilgan ishlar natijasida bolalarning o'qishida, reabilitatsiyasida, moslashtirilishida uchragan muammolarga jamoatchilikning, ota-onalarning e'tibori yanada ortdi.

4. "Ziyo" nodavlat Markazi, Respublika ta'lim Markazi va YuNESKO ishtirokida Farg'ona va Andijon viloyatlarida 60 nafar imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'lim yo'nalishiga jalb etilgan. Mamnuniyat bilan qayt etib o'tishimiz joizki, Respublikamizda inklyuziv yo'nalishdagi ta'lim keng tatbiq etilmokda. Bugungi kunda Xalq ta'limi vazirligi va Osiyo taraqqiyot banki hamkorligida tashkil etilgan "Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim" dasturiga katta ishonch bildiramiz. Bu dasturga asosan inklyuziv yo'nalishdagi ta'limga o'tish bo'yicha yana bir model o'rganib chiqilmoqda.

Bolalarni himoya qilish sohasidagi ko'pgina muammolarni ko'rib, o'rganib chiqdik. Bu muammolarning aksariyati bizning dunyoqarashimizdan kelib chikishini aytib o'tish joizdir.

Biz ayrim odamlarning ongiga singib qolgan sobiq tuzum asoratlarini o'zgartirishimiz kerak. Yangi ideologiya har bir shaxsning qadr-qimmatini hisobga olgan holda, shaxsning ma'naviy rivojlanishi, yutuq va imkoniyatlarini namoyish eta olishi maqsadini o'zida mujassam etadi. Hozirgi kunda bu borada qilinayotgan

ishlarning natijasini nogiron bolalarga bo'layotgan munosabat negizida ham ko'rishimiz mumkin.

Uzbekistonda Bolalar Parlamenti faoliyat ko'rsatmoqda. Unga har bir tumandan bir deputat o'quvchi saylangan. Ular maktablarda bolalar haquqlarini himoya qilish bo'yicha maktablarda tushuntirish ishlarini olib boradilar.

Xalq ta'limi vazirligi Uzbekiston Bolalar jamgarmasining hududiy filiallari bilan birgalikda har yili maktablar va "Mehribonlik" uylarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida Bola huquklari to'g'risidagi Konvensiyani o'rganish xaftaliklari o'tkazilmokda.

Bugun biz bolalarimizni eshitishni o'rganayapmiz.

Xulosa sifatida bir nogiron bolaning fikrini keltirmoqchiman:

"Men o'ylaymanki, haqiqiy hayotni bilish uchun insonning do'stlari bo'lishi kerak. Chunki, haqiqiy hayot bu atrofdagi insonlar bilan doimiy bog'lanish va muloqotda bo'lishdir. Men, menga yordam berayotgan insonlarsiz hech narsa qila olmayman. Agar men faqatgina ular bilan muloqotda bo'lishni istamasam unda boshqa do'stlar orttirish yo'llarini axtarishim, izlashim lozim".

I.2.Ijtimoiy ish xodimi – alohida ehtiyojli kishilarni o'rganuvchi qatlam sifatida.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlari yo'lini tanlagan mamlakatimizda ijtimoiy himoya muammolari ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston tanlagan demokratik taraqqiyot yo'li o'zbek modelining besh tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosat ekanligi ijtimoiy himoya masalalarni naqadar dolzarbligini ko'rsatib turibdi.

Barkamol avlod yilini e'lon qilinishini o'zi ijtimoiy himoyani ya'ni, aniq qilib aytganda maqsadli ijtimoiy himoyani namoyon bo'lishi bo'lib hisoblanadi. Yilga nom berish an'anasi 1997 yildan inson manfaatlari nomini berish bilan ijtimoiy himoya harakteriga ega bo'la boshladi¹. Shundan keyingi barcha yillarga u yoki bu ijtimoiy himoyaga dahldor bo'lgan nomlar berilib kelinmoqda. Inson manfaatlari yili, oila yili, ayollar yili, sog'lom avlod yili, onalar va bolalar yili, qariyalarni qadrlar yili va boshqa yillarni e'lon qilinishi fikrimizni tasdiqlaydi. Ushbu 2010 yilni barkamol avlod yili deb e'lon qilinishi ijtimoiy himoyaga bag'ishlangan yillarning navbatdagisi bo'lib hisoblanadi.

Barkamol avlod yilini e'lon qilinishini ma'no-mazmuni shundan iboratki, ushbu yilda barkamol avlodni shakllantirish boshqa ijtimoiy masalalar ichida ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu jarayon faqat bir yil bilan tugamaydi, balki keyingi yillarda ham davom etadi, chunki barkamol avlodni shakllantirish bir yillik ish emas. Barkamol avlodni shakllantirish uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u odamlar ongini va ma'naviyatini rivojlantirish bilan bog'liq. Odamlarni dunyoqarishini o'zgartirish esa, uzoq davom etadigan evolyusion jarayon bo'lib hisoblanadi. Obrazli qilib aytganda, bu bir loyqalangan daryoki, uning tinishi ma'lum bir vaqtni taqozo etadi.

Barkamol avlodni shakllantirishda maqsadli ijtimoiy himoyaning o'rnini o'rganishdan oldin ijtimoiy himoya tushunchasini mazmunini aniq aniglab olish lozim. Bu esa o'z navbatida bizni fikrlarni tarqoqligi va ayrim tushunmovchiliklardan saqlaydi. Ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ish tushunchalari mazmun-mohiyati jihatidan bir xil ma'noga ega. Ushbu tushunchalar

¹ Каримов И.А. «Юксак маънавият – енгилмас куч». Т., 2008, 53-б.

aholini xilma-xil ehtiyojlarini qondirishga va hayot faoliyatini amalga oshirishga xizmat qiladigan qulay sharoitlarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni anglatadi. Ijtimoiy ish tizimi ijtimoiy himoyani bevosita amalga oshiradigan professional tizim bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy himoya strategiyasi davlatni ijtimoiy siyosat konsepsiyasi bilan belgilab beradi.

O'zbekiston tanlagan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlari yo'li va muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning o'zbek modelining besh tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosat ekanligi ijtimoiy himoya strategiyasini asosini tashkil qiladi. Ijtimoiy himoya strategiyasi ijtimoiy soha mahoratini oliy darajasi bo'lib hisoblanadi. U ijtimoiy himoya tizimi nazariyasi va amaliyotini qamrab oladi. Ijtimoiy himoyani amalga oshirish usullarini va shakllarini, ijtimoiy himoya maqsad va vazifalarini belgilab beradi¹.

Ijtimoiy himoyani keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Keng ma'noda aholini barcha qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat va jamiyatni chora-tadbirlari tushuniladi. Tor ma'noda esa aholini yordamga muhtoj qismini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat va jamiyatni chora-tadbirlar tizimini tushunish lozim.

Ijtimoiy himoya davlat ijtimoiy siyosati strategiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ijtimoiy siyosat tushunchasini ham aniq tasavvur qilish lozim. Ijtimoiy siyosatni ham keng va tor ma'noda tushunish lozim. Keng ma'noda tarixan shakllangan jamiyat strukturalarini va institutlarini iqtisodiy o'sishini va xalq faravonligini o'sish samaradorligini ta'minlovchi gumanistik strukturaga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlaridir. Tor ma'noda esa u yoki bu sababga ko'ra boshqalarga nisbatan og'irroq ahvolda yashayotgan, muayyan sharoitlardan qiynalayotgan va o'z imkoniyatlari bilan ahvollarini yaxshilay olmaydigan guruh va tabaqalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini tushunish lozim. Boshqacha qilib aytganda ijtimoiy siyosat keng ma'noda siyosiy soha bilan, tor ma'noda esa iqtisodiy soha bilan bog'liqdir.

¹ И.А.Каримов «Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида» 2011 йил 69-71 бетлар.

Davlat ijtimoiy siyosati ijtimoiy himoya strategiyasi oldiga vazifalar qo'yadi. Ijtimoiy himoya strategiyasi ushbu vazifalarni amalga oshiradi. Ijtimoiy himoya strategiyasi ushbu vazifalarni bevosita ijtimoiy ish tizimi orqali amalga oshiradi. Shuning uchun ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi eng avvalo ijtimoiy ish tizimini professional tayyorgarlik darajasi va sifatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun respublikamizni bir qancha oliy o'quv yurtlarida ijtimoiy ish xodimlarini professional darajada tayyorlash tizimi shakllangan bo'lib, ushbu tizim kengayib, takomillashib bormoqda.

Ijtimoiy ish kasb sifatida bundan yildan oldinroq individ, guruh va butun jamiyatni muammolari va ehtiyojlariga javob tariqasida vujudga kelgan edi. bizning mamlakatimizda professional ijtimoiy ish tizimini shakllanishi qisqa davr tajribasi ushbu kasbni muhimligini va tez sur'atlar bilan rivojlanish imkoniyatlarini namoyon qildi. Ijtimoiy ishni jahon tajribasi va milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda professional ish tizimi mamlakatimizda intensiv rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda ijtimoiy ish asosiy e'tiborni bola va oilani himoya qilishga qaratmoqda.¹

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida shakllanib va rivojlanib borayotgan ijtimoiy ish xodimlarini professional darajada tayyorlash tizimi aholini hayotini faravon qilishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy ish xodimi davlat ijtimoiy siyosati bilan belgilab bergan ijtimoiy himoya strategiyasini bevosita amalga oshiradigan professional darajada tayyorlangan kadr bo'lib hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy himoyani kuchli qiluvchi muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Maqsadli ijtimoiy himoya esa ijtimoiy himoya tizimining muhim ko'rinishi bo'lib ayni paytda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan u yoki bu ijtimoiy muammoga aniq yo'naltirilgan ijtimoiy himoya shaklini anglatadi. Barkamol avlod yilini e'lon qilinishi buning uchun maxsus davlat dasturini ishlab chiqilishi maqsadli ijtimoiy himoyani namoyon bo'lishi bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistondagi keng ko'lamli ijtimoiy himoya tizimi inson uchun munosib hayot va faoliyat sharoiti yaratishga qaratilgan. Bozor munosabatlariga o'tishning

¹ Антонов А.И., Медков В.М. Социология семьи. Москва, 1996, стр.60.

boshlanish etaplarida ijtimoiy himoya aholining hamma tabaqalariga yo'naltirildi. Masalan, aholi daromadini imtiyozlar sistemasi va turli xil dotasiyalar orqali ko'tarishga harakat qilingan. Ish haqqi, nafaqaning minimal miqdorida soliq olinmas edi.

Respublika aholisining hammasini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan siyosat mablag'ning sochilib ketishiga olib keldi. Kam ta'minlangan va yetarli darajada ta'minlangan oilalar bir xil qo'llab-quvvatlangan. Davlat respublika byudjetining 3/1 qismini ijtimoiy sohaga sarf qilinishiga qaramasdan kam ta'minlanganlar ko'rsatilayotgan yordamni his qilmaydilar. Shuning uchun 1994 yilda ijtimoiy himoya mexanizmini o'zgartirishga to'g'ri keldi. Umumiy ijtimoiy himoyadan aniq yo'naltirilgan sosial himoya tizimiga o'tildi.

Sosial himoyaning yangi sistemasi aniq yo'naltirilganligi bilan, ya'ni ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga qaratilganligi bilan xalqaro tamoyillarga, milliy an'analarga va xalqimizning mentalitetiga to'g'ri keladi.

O'zbekistonda aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishning eng samarali mexanizmi deb mahalliy hokimiyat tomonidan emas, balki o'z-o'zin boshqarish organi bo'lgan mahalla tomonidan ko'rsatiladigan yordam mexanizmi tan olindi. Mahalla kim yordamga muhtoj ekanligini hammadan ham yaxshi biladi va ajratilgan mablag'ni yordamga muhtojlarga aniq yo'naltira oladi.

Bosh maqsadimiz bo'lgan ozod va obod, faravon jamiyatni qurish eng avvalo shu jamiyatda yashayotgan odamlarning ongi va ma'naviyatini yuksaklik darajasiga bog'liq. Ayniqsa, aholini eng faol qismi bo'lgan yoshlarimizning hayotga ongli munosabatda bo'lib, dahldorlik hissi bilan yashashlariga bog'liqdir. Jamiyat taraqqiyotini istiqbolini belgilashda yoshlar hal qiluvchi rol o'ynaydilar. Chunki ertangi kunimizning qandayligi yoshlarimizning bilim va ma'naviyatining darajasi bilan belgilanadi.

Yoshlarni va umuman insonni barkamolligi jismonan, ma'nau va aqlan yetuklik darajasi bilan bog'liq. Ana shu uch elementni uyg'unlikda rivojlanishi barkamollikni ta'minlashi mumkin. Respublikamizda yoshlarimizni uyg'unlikda rivojlanishi uchun barcha zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratilgan. Ta'lim

to'g'risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur asosida barkamol avlodni shakllantirish borasidagi ishlar izchil ravishda olib borilmoqda.

Yoshlarimiz ularga yaratilgan qulay imkoniyatlardan oqilona foydalanib o'z bilim va ma'naviyatlarini oshirish ustida ishlashlari lozim. Chunki inson miyasiga bilimni majbur qilib singdirib bo'lmaydi. Buning uchun inson o'zi intilib bilimni egallashi kerak bo'ladi.

Barkamol avlodni shakllantirishda maqsadli ijtimoiy himoyani o'rnini o'rganish barkamol avlod tushunchasini ham chuqur aniglab olishni talab etadi. Barkamol avlod deganda jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'nan yuksak avlodni tushunish lozim. Ana shu uchalla asosda shakllangan avlodni barkamol avlod deb aytish mumkin.

Ana shu uch asosda tarbiyalangan barkamol avlod qayerda shakllanadi? Bunday avlodni shakllanishi oilada, mahallada, ta'lim-tarbiya muassasasida va mehnat jamoalarida shakllanadi. Bularni ichida asosiy o'rnini oila egallaydi. Barkamollikka oilada asos solinadi va boshqa institutlarda oilada olingan tarbiya negizida yangi xususiyatlar rivojlanib boradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zlarining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarlarida «Inson o'z umri davomida oladigan barcha informasiyaning 70 foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan deb yozganligi fikrimizni tasdiqlaydi»¹.

Barkamollikni muhim belgisi bu jamiyatga nisbatan dahldorlik hissini shakllanishi bo'lib hisoblanadi. Insonda o'zgalar manfaatini o'ylash hissiyoti oilada shakllanadi. Shuning uchun ham mashhur donishmandlardan biri «oila altruizmning buyuk maktabi» deb yozib qoldirgan. Oilaga yo'naltirilgan maqsadli ijtimoiy himoya oilani sog'lomlashtirib, barkamol avlodni shakllantirishga yordam beradi. Chunki barkamollikni muhim belgisi xudbinlikni jilovlanganligi, altruistik sifatlarni shakllanishi bilan belgilanadi. Oilada esa oila a'zolari bir-birovini manfaatini kimlardandir qo'rqib emas, balki ichki motivlar asosida ixtiyoriylik

¹ Каримов И.А. «Юксак маънавият – енгилмас куч». Т., 2008, 53-б.

bilan ifodalaydi. Oila insonning shunday noyob evolyusion kashfiyotiki u shaxs bilan jamiyat o'rtasida vositachilik rolini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda oila o'zini farzandlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish orqali jamiyatni barkamol avlodga bo'lgan ehtiyojini qondiradi.

Jismonan sog'lom voyaga yetayotgan bolada ilmiy va ma'naviy yuksalish imkoniyati yuqori bo'ladi. Buning uchun bola bilim va ma'naviyat nima uchun kerakligi aniglab yetishi kerak. Bilimni o'zlashtirishni samarali qiluvchi muhim omil bu qiziqishni shakllanganligi. Qiziqish esa egalik hissi shakllangandan keyin paydo bo'ladi. Fermerda yerga egalik hissi shakllangandan keyin unda samarali mehnat qilishga qiziqish paydo bo'ladi. Ho'sh, yoshlarda bilim egallashga qiziqish shakllanishi uchun nimaga nisbatan egalib hissi bo'lishi kerak? Buning uchun yoshlarda bilimga, ya'ni intellektual mulkka nisbatan egalik hissi shakllanishi lozim. Ya'ni mening boyligim, mening bilimim degan tushuncha bo'lishi kerak. Ana shunda yoshlarda bilim egallashga qiziqish va mas'uliyat yo'z aga keladi. Qiziqish va mas'uliyat esa har qanday jarayonni samarali qiladigan kuchli omillardan bo'lib hisoblanadi.

Yoshlarda intellektual mulkka nisbatan egalib hissi shakllanishi uchun jamiyatda ilm qadrlanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, ilm va ma'naviyat ahli qadr topishi kerak. Ularni jamiyatdagi mavqeyi va roli oshib borishi lozim. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov Konstitusiyaning 17-yilligi munosabati bilan ma'ro'za qilib hozirgi kunda dunyoda intellektual mulkni ustivorligi o'rnatilayotganligini ta'kidladilar². Intellektual mulkni ustivorligi aqliy va jismoniy mehnat o'zaro munosabatida aqliy mehnatni qadri oshib borayotganligi anglatadi. Bu esa o'z navbatida yoshlarni bilim olishga bo'lgan intilishni kuchaytiruvchi omil bo'lib hisoblanadi. Intellektual salohiyat ham maqsadli ijtimoiy himoya obyekt bo'lishi lozim.¹

Barkamollikni anglatuvchi ma'naviy yuksaklik axloqiy tarbiya jarayonida shakllanadi. Agar inson jismonan sog'lom va aqlan yetuk bo'lsayu, lekin ma'nan

¹ Антонов А.И., Медков В.М. Социология семьи. Москва, 1996, стр.60.

qashshoq bo'lsa, bunday odamni barkamol deb bo'lmaydi. Chunki ma'nan qashshoq odamda jamiyatga nisbatan daxldorlik hissi bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda u jamiyatga nisbatan befarq bo'lib yashaydi. Befarqlikni sababi esa nodonlikdir. Inson oliy ma'lumotli, fan nomzodi, fan doktori va hatto professor bo'lishi mumkin, lekin ayni paytda nodon bo'lib qolishi mumkin. Befarqlikdan xalos bo'lib, daxldorlik hissi bilan yashash uchun axloqiy tarbiya kuchayib ma'naviyat yuksalib borishi kerak. Ma'naviyat esa insonda irodani baquvvat qilib, iymon e'tiqodni butun qilib daxldorlik hissini shakllantirib befarqlikdan xalos etadi.

Barkamol avlodni shakllantirishda maqsadli ijtimoiy himoya oilaga yo'naltirilgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki, barkamollik asoslari oiladan boshlanadi. Ushbu xususda muhtaram Prezidentimiz shunday deb yozadi: «...yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishini istardim».

Barkamol avlod mamlakat boyligi har bir oilaning boyligidan tashkil topishini, hamda, xalqni erkinligi har bir odamni erkinligidan tashkil topishini aniglab olgan bo'lishi lozim. Ana shu oddiy haqiqatni anglay olgan odamda jamiyatdagi voqyealarga nisbatan, qonun bo'z ilish holatlariga nisbatan befarqlik bo'lmaydi. Ular jamiyatda tartib o'rnatishga xizmat qiladigan ijtimoiy regulyator bo'lgan huquq va axloqqa rioya qilishni nazorat qilishga qodir bo'lishi kerak. Inson zoti tabiatan nazoratga muhtoj, chunki unda tabiatan egoizm bor va nazoratsizlik oqibatida u faqat o'zini manfaatini o'ylaydi. Jamiyat odamlar majmuidan iborat ekan demak jamiyatda ham nazoratga ehtiyoj kuchli bo'ladi. Jamiyatda nazorat tizimini takomillashtirishda yoshlar ya'ni daxldorlik hissi bilan yashayotgan barkamol yoshlar o'zlarini munosib o'rinlariga ega bo'lishlari kerak.

Barkamol avlod boshqalardan nimasi bilan farq qilishi lozim. Unda jamiyatga nisbatan daxldorlik hissi kuchli bo'lishi kerak. U hayotga ongli munosabatga bo'lib biz qanday jamiyat qurayotganligimizni va qaysi yo'l shunday

jamiyatga olib borishini aniq tasavvur qilishlari lozim. Va eng muhimi shunday jamiyat qurish uchun jamiyatda tartib bo'lishi kerakligini aniglab olishlari lozim. Jamiyatda tartib bo'lishi uchun esa tartib o'rnatadigan ijtimoiy regulyatorlar bo'lgan huquq va axloqqa rioya qilish nazorat qilinishi lozim. Shunday nazorat tizimi shakllanishi kerakki, u jamiyatda qonun ustuvorligini va jazoni muqarrarligini amalda ta'minlasin. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov Vazirlar Mahkamasidagi yig'ilishlardan birida bizda shunday nazorat tizimi shakllanishi kerakki, agar biror bir shaxs qonunni bo'z sa, uni jazosini yuqori lavozimda o'tirgan mansabdor shaxs emas, balkim tizim berish kerak⁴ deb ta'kidladilar. Ana shunday nazorat tizimi shakllanishi uchun eng muhim shart bu odamlarda va eng avvalo yoshlardagi dahldorlik hissidir.¹

Odamni baxtli bo'lishi uchun jamiyatda tartib bo'lishi kerak. Tartib bo'lmagan joyda hech kim o'zini adolatsizlikdan, nohaqlikdan himoyalangan deb his qila olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, tartib bo'lmagan joyda odam qo'rquv bilan yashaydi. Qo'rquv bilan yashagan odam hech qachon baxtli bo'la olmaydi. Albatta qo'rquv umuman yo'q bo'lib qolmaydi, qo'rquv faqat huquq va axloq bo'z ilishini ehtimoli kelib chiqqanda paydo bo'lishi kerak, xolos.

Davlat ijtimoiy siyosatining e'tibor markazida oila turishi lozim. Oilani mustahkamlash orqali bolalar va qariyalar muammosini ham hal qilish mumkin. Chunki to'laqonli oila er-xotinlik, ota-onalik va qarindoshchilikning uchalasini birligidan iborat bo'ladi. Ana shu uch elementdan iborat bo'lgan to'laqonli oilani tiklash va mustahkamlash asosiy vazifa bo'lishi kerak. Buning uchun jamiyatda oilaga yo'naltirilgan siyosat olib borilishi darkor. U yoki bu insonga munosabatda bo'lganda uni alohida individ sifatida emas, balki oilani bir a'zosi sifatida qarash lozim.

Hozirgi kunda mamlakatimizning bolalar uyida saqlanayotgan bolalarning 10 foizi yetim bolalar bo'lib, qolganlarining esa ota-onasi tirik bolalar bo'lib hisoblanadi. Oila inqirozi tufayli yordamga muhtoj bolalarni soni ortib bormoqda.

¹ Каримов И.А. «Юксак маънавият – энгилмас куч». Т., 2008, 53-б.

Oilani mustahkamlash orqali yordamga muhtoj qarovsiz bolalarni 90 foizga qisqartirish mumkin bo'ladi.

Oilani mustahkamlamay turib, barkamol avlodni shakllantirish jarayoni samarali bo'la olmaydi. Chunki insonning ijtimoiylashuvining 90 foizi oilada amalga oshiriladi. Bu degani bolalarimizni hayotda qanday o'ringa ega bo'lishlari va tarixda yaxshi nom qoldirishlari oiladagi muhit bilan belgilanadi. Oiladagi muhitni sog'lomligi nima bilan belgilanadi yoki qanday muhitni sog'lom muhit deb aytish mumkin? Insoniyat jamiyati yaralibdiki, adolat bilan razolat betinim olishuvda. Bu ko'ra sh jamiyatni barcha bo'g'inlarida, jumladan oilada ham namoyon bo'ladi. Ushbu ko'ra shda adolat g'alaba qozonsa muhit sog'lom, agar teskari bo'lsa muhit nosog'lom bo'lib hisoblanadi. Oiladagi sog'lom muhit jamiyatdagi muhitni belgilab beradi. Oiladagi sog'lom muhit farzandlarimizni barkamolliklarini muhim sharti bo'lib hisoblanadi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan maqol ham aynan shuni anglatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki barkamol avlod asoslari oilada shakllanar ekan, asosiy e'tibor oilani mustahkamlash va sog'lomlashtirishga qaratilib, jamiyatda oilaga yo'naltirilgan siyosat olib borish lozim. Ijtimoiy himoya strategiyasi oila global inqirozini bartaraf qilib to'la qonli oilani tiklash va mustahkamlashga qaratilishi lozim. Kuchli ijtimoiy siyosat olib borayotgan respublikamizda oilani mustahkamlash uchun barcha siyosiy, huquqiy sharoitlar mavjud. Bu borada maqsadli ijtimoiy himoya aniq yo'naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy himoya tizimini yanada samarali qilish uchun mamlakatimizda mavjud bo'lgan ijtimoiy sohada faoliyat olib boradigan barcha institutlarni muvofiqlashtiruvchi markaz to'z ish maqsadga muvofiqdir. Ushbu markaz ijtimoiy himoyani maqsadli ya'ni aniq yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, ijtimoiy himoya sohasida juda ko'plab institutlar faoliyat olib boradi lekin ularni faoliyatini muvofiqlashtirish yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Bundan tashqari ijtimoiy himoyani samarali bo'lishi aholini siyosiy madaniyati bilan ijtimoiy siyosatga doir bilimlardan xabardorligi bilan belgilanadi Shuning uchun ijtimoiy

siyosat fanini nafaqat ijtimoiy ish yo'nalishlarida balki barcha yo'nalishlarda o'qitish lozim.

Maqsadli ijtimoiy himoya bolalarga, qariyatlarga, ayollarga va boshqalarga qaratilishi mumkin. Lekin oilaga yo'naltirilgan maqsadli ijtimoiy himoya ancha samaraliroqdir va iqtisodiy jihatdan ham tejamlidir. Maqsadli ijtimoiy himoya uy bekalariga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. Uy bekasi jamiyatda qadr topishi kerak va eng sharafligini kasb deb tan olinishi lozim.

Bundan tashqari maqsadli ijtimoiy himoya iqtidorli, indigo va vunderkind bolalarga nisbatan yo'naltirilishi darkor. Chunki, bunday bolalarni intellektual imkoniyatlari yuqori bo'lib, ular o'z imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun qo'shimcha qulay shart-sharoit yaratish lozim bo'ladi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda ilmni qadr topishi va yuksalishini ta'minlaydi. Bilim esa jamiyatda tartibni ta'minlab taraqqiyotni belgilab beradi.

Barkamol avlodni shakllantirish jarayonida bolalarni jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'nan yuksak bo'lishlariga xizmat qiladigan sharoitlarni yaratib, muammoni sosial jihatlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Shaxsiy uylarda yashovchi nogironlar ahvoli ayniqsa yomon edi. Ijtimoiy ta'minot xalq komissarligi (ITXK) organlari ko'pincha bu guruhni ularning uylarga bo'lgan huquqlariga har qanday tajovo'z dan himoyalash bo'yicha qat'iy ishlar olib borishiga to'g'ri kelgan. ITXK hisobotida ta'kidlanganidek, hukumat organlarining kommunal bo'limlari va hatto milisiya mazkur ishda har doim ham kerakli e'tibor va himoyani ko'rsatishmagan.

Biroq nogironlik uylarida yashovchi nogironlarning ahvolini ham yaxshi deb bo'lmasdi. Nogironlik uylarini ta'mirlash, masalan Toshkentda, butun mavjudlik davrida umuman amalga oshirilmagan; hatto mayda kichik ta'mirlash ishlari bajarilmagan: eshik va derazalarni to'z atish va binoni oqlash kabi. Ularning xo'jalik jihozlari to'ldirilmagan, eng oddiy qulayliklar ham yo'q edi. Buning hammasi salbiy taassurot uyg'otar edi. Sabab o'sha-o'sha mablag'larning yetishmasligi. Bu ish tabiiyki, nogironlarning asabiga salbiy ta'sir ko'rsatar, birovlarida g'ashlik holati, boshqalarida g'azab uyg'otardi. Bular ITXK ning

hisobotida bu nogironlar 75% ga ruxiy kasal deb tashxis quyilganlar, aksariyati esa mayib-majruh va jismonan hasta deb ko'rsatilgandi. Ba'zan bu yerda ularning oilalari ham, kattalar tortayotgan azoblarni boshdan kechirayotgan kichik yoshli bolalari ham yashashardi.

Buning hammasini hukumat nogironlar o'zlarini anglashi va intizomini oshirish uchun bosh choralardan bori sifatida ular orasida madaniy-ma'rifiy ishlar olib borish bilan o'rnini to'dirishga uringan... Biroq bu ish ham mablag' yo'qligi tufayli to'xtab qolardi.

Nogironlarni turli hunarlarga o'rgatishni kuchaytirishga harakatlar qilindi. Bunday o'qitishning respublikadagi bosh markazi 1923 yil oktyabrda tashkil etilgan nogiron – kasb-hunar bilim yurti bo'ldi, u namunaviy o'quv - muassasa bo'lib xizmat qilishi kerak edi. U yerda 60 kishidan iborat ishchi va xizmatchilar, shu jumladan 18 ta nogiron faoliyat ko'rsatayotgan temirchilik ustaxonasi va tunuka bosuvchi sex ishlayotgandi. Shuningdek duradgorlik, savat to'qish, karton sexlarini, muqovalash ustaxonasi ochmoqchi ham bo'lishgan. Ammo mablag'ning yo'qligi sababli bu amalga oshmadi. 1923 - 1924 yillar smetasi bo'yicha ushbu bilim yurti rivojlantirishga 38400 rubl berish ko'zda tutilgan, amalda esa 1923 yil 1 oktyabridan 1924 yil 1 aprelegacha atigi 3350 rubl berilgandi.

Ijtimoiy ta'minlash ishidagi eng zaif tomonlardan biri nogironlarni davolash edi. Ularga Sog'liqni Saqlash Komissarligi organlari yetarlicha tibbiy yordam ko'rsatishmagan, ko'p nogironlar esa shahar ambulatoriyalariga borib, u yerda navbatga turishga qodir emas edilar. 1-sonli nogironlik uyida shaxsiy ambulatoriya ochishga to'g'ri keldi. Biroq uni jihozlash ham oxiriga yetkazilmadi. ITXKning hisobotida aytilishicha, kurort vositasida davolash ishi o'ta yomon ahvolda edi. Markaz Respublika ITXKning Turkistondan tashqari kurortlarda nogironlar uchun joy berish xaqidagi arizasiga e'tibor bermadi, bu yerda haqiqatdan ham joy yo'q edi.

Fuqarolar urushi davrida majruhlangan odamlarni protezlar bilan ta'minlash hali ham juda murakkab muammoligicha qoldi. Sog'liqni Saqlash Xalq Komissarligi qoshidagi yagona protez yasash ustaxonasi mablag' yo'qligi tufayli

1923 - 1924 yillarda umuman ishlamagan. Bu vaqtda esa protezlarga homaki hisobda 500 dan ortiq kishi muhtoj bo'lgan.

Qishloq joylarda yashagan nogironlarning ahvoli yanada ayanchli edi. Turk MIK va XKS ning 1923 yil 18 dekabrda 191 -sonli qarori bilan ijtimoiy o'zaro yordam qo'mitalari - ITXK dan olinib, "Qo'shchi" ittifoqini tassarufiga o'tkazildi. Natijada bundaylar bilan aloqa umuman o'z ildi. Kelgusi ishlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, amalga oshirilgan tadbirlar maqsadga muvofiq emas edi, chunki shahardan tashqarida yashovchi nogironlar juda yomon ta'minlanganlar.

O'zbekiston ijtimoiy-demografik rivojlanish xususiyatlarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Tug'ilishning yukori darajasi, tabiiy o'sish, aholining yosh tarkibi va boshqa ko'rsatkichlar rivojlanishning taraqqiyparvar namunasini shakllantiradi. Aholi tuzilmasida 17 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar 44 foizni tashkil etadi.

Respublika mustaqillikning birinchi kunidan boshlab onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish muammolari, bolalarni har tomonlama uygunlashgan holda rivojlantirish va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun sharoitlar yaratishga muhim davlat vazifasi sifatida e'tibor qaratdi. Bolalar farovonligini ta'minlash bo'yicha siyosatning asosiy ustuvorligi sifatida quyidagilar belgilandi:

- oila, onalik va bolalik qiziqishlarini himoyalashning huquqiy asoslarini ilgor xalqaro tajriba va huquq tizimidan foydalanishni hisobga olgan holda rivojlantirish va takomillashtirish;

- oilani mustahkamlash, bolalarning moddiy farovonligi, bolalar va o'smirlar o'rtasida qarovsizlik faktlarini oldini olish uchun iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

- aholining reproduktiv sogligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;

- "Ona va bola skriningi" kelajakda homilador ayollar va yangi tug'ilayotgan gudaklarda tug'ma va nasliy patologiyalarni barvaqt aniqlash tizimini rivojlantirish;

- homilador va tug'uvchi ayollarga tibbiy yordam hamda bolalar muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj kontingentdagi bolalar - nogironlar, yetimlar, kam ta'minlangan oilalarning bolalarini davlat himoyasini ta'minlash;
- aholining reproduktiv sog'liqni himoyalash sohasidagi bilimi darajasi va mutaxassislar malakasini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, tibbiyot madaniyatini yaxshilash;
- ayollarning reproduktiv sog'lig'ini, bola tug'ish va tarbiyalashni yaxshilash bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

Bu siyosatni amalga oshirishning asosiy instrumenti byudjet va donorlik vositasi hisobidan moliyalanuvchi tegishli hukumat qarorlari va maqsadli dasturlar hisoblanadi. Dasturlar ayollar va bolalar manfaatlarini amalga oshirish, jismoniy sog'lom, ruhan boy, uyg'unlashgan rivojlangan o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash uchun zaruriy huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan.

YuNISEF ning "2003 yil ijtimoiy monitoringi" tadqiqotida O'zbekistonda sog'liqni saqlash, maktab va professional ta'limga sarflanayotgan davlat xarajatlarining hajmi Urta Osiyo mamlakatlari orasida birmuncha yuqori hisoblanadi, onalar va bolalar farovonligi ko'rsatkichi bo'yicha esa respublika Xalqaro forumning yaqin kelajakka mo'ljallangan tavsiyalaridan oshib ketgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus sessiyasi (2002 yil may) davlatlar va hukumatlar boshliqlari ishtirokida bolalar hayoti uchun yaroqli dunyo barpo etish bo'yicha harakatlar Plani va Deklarasiyasini qabul qildilar, maqsadlar, strategiyalar va 2015 yilgacha bolalar farovonligini ga'minlash bo'yicha choralarni belgiladilar. Bu Hujjatlar mazmunidan kelib chiqib, farovonlikning quyidagi aspektlari belgilandi:

- oila hayoti va yaratish sharoitlarining asosiy ma'lumotlarini aks ettiruvchi farovonlik holatining integrasiyalangan tavsifnomasi;
- ayollar va bolalar sogligi — keksa yoshdagi ayollar, homilanin antenatal muhofazasi, yangi tugilgan va 1 yoshgacha bo'lgan bolalar, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar, 6-12 yoshdagi bolalar, o'smirlar va yoshlarning (13-18 yosh) soglik holatini xarakterlovchi aspektidir;

- maktabgacha tarbiyani o'zida mujassam etgan ta'lim va tarbiya; maktab ta'limi; o'rta maxsus ta'lim;

- oilaning moddiy farovonligi - mehnatga layoqatli a'zolarining, birinchi navbatda, ota-onalarning bandlik holati va oila daromadi.

Bolalarning kelgusidagi farovonligini yaxshilash strategiyasi asosiga yukorida bayon etilgan shu sohadagi davlat siyosati yo'nalishlari ko'yilgan. Davlat strukturasi kuchini va imkoniyati, jamoatchilik tashkilotlarini e'tibori va harakati amaldagi ijtimoiy dasturlarni kelgusida chuqurlashtirish hamda amalga oshirish, bolalar rivojlanishi va manfaatlarini ta'minlovchi yangi maqsadli dasturlarni xalqaro moliya va xorijiy institutlarning donorlik ko'magida amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Bolalar farovonligini yaxshilashga yo'naltirilgan barcha dasturlar va harakatlarning bosh xususiyati O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan Mingyillik Rivojlanish Maqsadiga erishish bo'yicha yuqori natijani olishga, bu jarayonlarda turli tuzilmalarning o'zaro ta'sirini kuchaytirishga, mahalliy tashabbusni rivojlantirish va boshlang'ich tashkilotlarning ishtirokiga aniq mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining siyosati doimo birinchi navbatda ko'p bolali oilalar va aholining kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan.

Bolali oilalarga davlat ko'magini kuchaytirish, yosh avlod tarbiyasi va bolalarning har tomonlama rivojlanishi muammolarini hal qilishni kafolatlashni ta'minlash maqsadida 1994 yilda respublikada bolali oilalarga davlat ijtimoiy yordamining quyidagi turlaridan iborat Yagona tizimi kiritildi:

16 yoshgacha bo'lgan bolalari bo'lgan barcha oilalarga har oylik nafaqa; onalarga bolasi 2 yoshga to'lgunicha parvarishlashi uchun har oylik nafaqa; kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam.

Ko'rsatilgan nafaqalarni moliyalash manbasi Davlat byudjeti hisoblanadi.

Nafakani belgilash va to'lash bilan fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari shugullanadi.

1. Bolali oilalarga har oygi nafaqa eng kam oylik maoshiga foiz nisbatida bolalar sonidan kelib chiqib to'lanadi.

Nafaqalar miqdori bir necha marta ko'tarildi va ayni damda quyidagichadir:

Bir bolali oilalarga - eng kam ish haqining 50 foizi

Ikkita bolali oilalarga - eng kam ish haqining 100 foizi

Uchta bolali oilalarga - eng kam ish haqining 140 foizi

To'rtta bolali oilalarga - eng kam ish haqining 175 foizi miqdorida.

Eng kam ish haki ko'tarilgan sari mutanosib ravishda nafaka miqdori ham oshib boradi.

Bolali oilalarga adresli ijtimoiy yordam ko'rsatishni kuchaytirish maksadida 1997 yil yanvaridan boshlab ushbu nafaka faqat muhtoj oilalarga beriladigan bo'ldi.

2002-2003 yillarda (Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 25 yanvaridagi 33-son qarori) aholining ijtimoiy muhtoj qatlamiga adresli ko'mak berishning Qabul Qilingan Dasturida 16 yoshga to'lmagan bolalari bo'lgan oilalarga Nafaqa endi 18 yoshgacha, shu shart bilanki, ular umumta'lim maktablari, akademik liseylar va maxsus kollejlarda stipendiyasiz ta'lim olgan takdirlarida to'lanadigan bo'ldi.

2. Bola parvarishi uchun onalar nafaqasini to'lashga yondoshuv o'zgartirildi. Agar 1994 yilgacha nafaqalar 1,5 yoshgacha to'langan bo'lsa, endi 2 yoshgacha to'lanadigan bo'ldi. Bundan tashqari, nafaqalar miqdori bir necha marta o'zgardi. Bu nafaqalar 1994 yilda eng kam oylik maoshining 20 foizi miqdorida to'langan bo'lsa, 2003 yilning yanvariga kelib eng kam oylik ish haqining 200 foiziga yetdi. Biroq 2002 yil 1 fevralidan boshlab bunday nafaqa barcha ishlamaydigan onalarga emas, balki kam ta'minlangan, ya'ni 1 oilaning bitta a'zosining daromadi eng kam oylik maoshining 1,5 miqdoridan oshmagan oilalarga beriladigan bo'ldi.

Oila daromadi hisobga olinmay nafaqa belgilash quyidagi hollardagina mumkin:

a) to'liq bo'lmagan oilada bola tarbiyalayotgan onalar va otalarga;

b) nogiron farzandini tarbiyalayotgan onalarga. Bunda farzandlaridan qay biri nogiron bo'lishi muhim emas.

Bola parvarishi uchun ta'tilda bo'lgan barcha ishlaydigan onalarga oila daromadidan qat'i nazar o'sha miqdorda nafaqa to'lanadi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 23 avgustidagi Qarori bilan kam ta'minlangan oilalarga davlat ko'magini, aholini adresli ijtimoiy himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarining keng va faol ishtirokini kuchaytirish maqsadida barcha qishloq, ovul va mahallalarning fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlarida kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus jamg'armalar tashkil etildi.

Har oygi moddiy yordam miqdori eng kam oylik maoshining 1,5 dan 3 tagacha miqdori chegarasida belgilangan.

Bir oila bir vaqtning o'zida uchchala turdagi nafaqani olishi mumkin.

2006 yil uchun shu uch turdagi nafaqaga respublika bo'yicha 282,6 mlrd so'm ko'zda tutilgan, bu degani yalpi ichki mahsulotning 1,55 foizini tashkil etadi.

Bundan tashqari, byudjetdan tashqari vositalar hisobidan moliyalanuvchi nafaqalarning bir necha turlari mavjud bo'lib, Moliya vazirligi tomonidan 2005 yildan quyidagicha miqdorda belgilangan:

1. Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa 126 kun (tug'ishning og'ir shaklida 140 kun) uchun ishchi oylik maoshining 100 foizini tashkil etadi.

2. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik (asosan onalarning betob farzandlari parvarishi) uchun nafaqa. Agar xodimning o'zi kasal bo'lsa, unda bu nafaqa ish stajiga qarab to'lanadi: 8 yilgacha staj uchun - 60 foiz, 8 yildan ortiq bo'lsa - 80 foiz. Uchta yoki undan ortiq farzandlari bo'lganlarga esa oylik maoshining 100 foizi miqdorida nafaqa to'lanadi.

3. Bola tug'ilganidagi nafaqa eng kam oylik ish haqining 2 karra miqdorida to'lanadi.

O'zbekiston - uncha ko'p bo'lmagan rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lib, aholisining asosiy qismi xat-savodlidir. Aholining yuqori ta'lim darajasi – mamlakatning oliy yutuqlaridan biri. Aholining 7-15 yoshdagi guruhini umumta'lim maktablarida o'qitish muammosi hal qilingan.

Respublikada ta'lim tizimining barcha zvenolarida islohotlar amalga oshirilgan. Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur va O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'grisida" Qonunining asosiy vazifalari ta'limning barcha bosqichlarida sifatni ko'tarish, bepul o'n ikki yillik ta'limga o'tish hisoblanadi.

Maqsadlar va vazifalarga muvofik ravishda sifatli ta'limni ta'minlash bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar belgilandi:

Maktabgacha ta'lim muassasalarida:

- maktabgacha yoshdagi bolali oilalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hisobiga davlat Maktabgacha ta'lim muassasa (MTM) lariga bolalarni jalb etishni ko'paytirish; noan'anaviy shaklli maktabgacha ta'lim tashkilotlar tarmog'i tomonidan bolalarni jalb etishni ko'tarish; "bolalar bogchasi - maktab", uydagi va nodavlat bolalar bog'chalari, shuningdek, bolalar kisha muddatda bo'ladigan turli guruhlarning kompleks tarmog'ini kengaytirish;
- pedagogik kadrlarning professional darajasini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish yo'li bilan ko'tarish;
- dastlabki mehnat malakasi, mantiqni shakllantiruvchi va bolalarning manfaatlari hamda talablarini qondiruvchi, ibrat bo'ladigan materiallar va o'yinchoqlarni ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini tayyorlash.

Bugungi kunda mamlakatdagi o'n mingga yaqin maktablar olti yarim million o'g'il-qizlarni tekinga o'qitmoqda. Umumiy o'rta ta'limda birinchi galda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;
- maktablarni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi, darsliklar va o'quv-uslubiy materiallar bilan mukammal ta'minlash;

- qishloq joylardagi umumta'lim maktablarini, birinchi navbatda, malakali pedagogik kadrlar ta'minlash va ularning mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish;
- umumta'lim maktablarida sportni rivojlantirish va ularning sport bazasini mustahkamlash.

Ko'rsatilgan dasturni moliyalashning asosiy manbalari byudjet vositalari bilan bir qatorda, korxonalar va tashkilotlar, homiylarning shaxsiy vositalari, xorijiy kredit va grantlar deb belgilandi. Vositalarni to'plash va ulardan maqsadli foydalanish uchun maktab ta'limining byudjetdan tashqari maxsus jamgarmasi tashkil etildi.

Moliyaviy imkoniyatlardan samarali foydalanishni ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash va ijtimoiy odillikni saqlash uchun normativning o'rtacha hisobi (1 ta o'quvchiga) asosida moliyalashni amalga oshirish mo'ljallanmoqda. Bunday yondoshuv umumta'lim tashkilotlari rahbarlarini o'quvchilar kontingentini ko'paytirishga qiziqishlarini ta'minlaydi.

Shu bilan birgalikda, muruvvat uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, sanatoriya tipidagi ta'lim muassasalarida ota-ona qaramog'isiz qolgan va tibbiy yordamga muhtoj bolalar tarbiyalanayapti. Muhitni isloh qilish jarayonida aynan muhtoj bo'lgan o'quvchilarga ijtimoiy yordam ko'rsatishga katta e'tibor qaratiladi.

Respublikada bugungi kunda 162 taga yaqin ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari ishlab turibdi, shu jumladan:

68 — jismoniy yoki aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat;

22 - aqli zaif bolalar uchun yordamchi umumta'lim maktablari;

18 - to'liq bo'lmagan yoki kam ta'minlangan oilalardan chiqqan bolalar uchun maktab-internatlar;

23 - sil va skolioz kasali bilan kasallangan bolalarning reabilitatsiyasi uchun maktab-internatlar;

28 - "Mehribonlik" uylari.

Har yili ularni boqish uchun Davlat byudjetida 28,0 mlrd so'mdan ortiq mablag' ajratiladi.

Bundan tashqari, bolalar va kam ta'minlangan oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida Davlat byudjeti hisobidan 520 ming birinchi sinf o'quvchilari o'quv jihozlari komplekti bilan va kam ta'minlangan oilalardan chiqqan o'quvchilardan 720 mingtasi qishki kiyimlar jamlanmasi bilan ta'minlanmokka. Bu maksadlar uchun har yili byudjetdan 22-25 mlrd. so'm (20 mln. ga yaqin AQSh dollari) ajratiladi.

Shu bilan birgalikda, "Mehribonlik" uylari tarbiyalanuvchilari, ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar, shuningdek, ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalardan chiqqan barcha birinchi sinf o'quvchilarini darsliklar va o'quv-uslubiy adabiyotlari bilan bepul ta'minlash maqsadida Davlat byudjeti vositalari hisobidan 16 mlrd. so'mdan ortiq (14 mln. AQSh dollari) mablag' ajratiladi.

Joriy ta'minot bilan bir qatorda akademik liseylar va kasb kollejlarida o'qiyotgan ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar va yetim bolalar davlat byudjeti vositalari hisobidan stipendiyalar, bepul ovqatlar, yo'l kartochkalari va kiyim-kechaklar bilan ta'minlanadilar.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 25 yanvaridagi "2002-2003 yillarda aholining ijtimoiy muhtoj qatlamiga adresli ko'mak berish dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar haqida" 33-son Qarori bilan to'liq davlat ta'minotida bo'lgan ota-ona qaramogisiz qolgan bolalar va yetim bolalarga barcha tipdagi ta'lim muassalarini bitirib ketayotganlarida va ishga joylashayotganlarida kiyim, poyafzal va asbob-uskunalar olishlari uchun eng kam oylik ish haqining 100 karra mikdorida nafaqa va 5 karra mikdorida pul ko'rinishidagi nafaqa beriladi.

Sog'liqni saqlash sohasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 iyunidagi 242-son karoriga asosan tasdiqlangan oilada tibbiy madaniyatni ko'tarish, ayollar sog'ligini mustahkamlash, sog'lom avlod **II-bob Alohida ehtiyojli kishilar bilan ijtimoiy ish olib borişning xoriжий мамлакатлар тажрибаси.**

tug'ilishi va tarbiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha choralar Davlat Dasturiga muvofiq 2003-2007 yillar davomida bir tomondan aholining reproduktiv sogligini yaxshilash bo'yicha tibbiy, pedagogik xodimlar va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari ishini kuchaytirish, ikkinchi tomondan esa tug'ish va homilador ayollarga yordam, bolalar va qon xizmati muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalalarini yechishga qaratilgan 61 ta tadbir o'tkazish ko'zda tutilgan.

2002 yildan 2007 yilgacha muddatda Davlat dasturini bajarish uchun xarajatlar 95 mlrd.so'm va 122 mln. AQSh dollarida baholandi, shundan 44,3 mlrd. so'mni davlat byudjetidagi moliya vositalari tashkil etadi.

2002 yildan 2007 yilgacha "Ona va bola skriningi" yangi tug'ilgan chaqaloqlar va homilador ayollarda tug'ma hamda nasliy patologiyani barvaqt aniqlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishga davlat byudjeti vositalari hisobidan 7,4 mln. AQSh dollari hajmini valyuta vositasidagi so'mda qoplash ko'zda tutilgan.

Respublikada onalik va bolalik tizimini takomillashtirish, tug'ish va homilador ayollarga yordam muassasalarining moddiy-texnik bazasini muslahkamlash maqsadida "Ayollar va bolalar sog'lig'ini mustahkamlash" loyihasi amalga oshirilmokda. Loyihaning umumiy narxi 70 mln. AKSh dollarida baholangan, shundan 40 mln. AQSh dollari Osiyo rivojlanish bankining qarz mablag'lari va 30 mln. AKSh dollari byudjet mablag'i.

2 yoshgacha bo'lgan bolalarni emlash va kasallikka chidamlilikni oshirishga ajratilgan byudjet mablaglaridan samarali foydalanish uchun ko'rsatilgan xarajatlar 2004 yildan boshlab byudjet tasniflashida alohida satrga ajratib berildi.

II-bob Alohida ehtiyojli kishilar билан ижтимоий иш олиб боришнинг хорижий мамлакатлар тажрибаси.

II.1. Alohida ehtiyojli kishilarning G'arb jamiyatida o'rganilishi.

Farb davlatlaridagi keyingi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy voqyealar inson va uning shaxsiy erkinligi, haq-huquqlari oliy maqsad ekanligi to'g'risidagi g'oyalarning yoyilishiga turtki bo'ldi. Endilikda, oilaviy-jamoaviy g'amxo'rlik munosabatlariga putur yetib, ijtimoiy muhofazaning davlat miqyosidagi yangi ta'limotlari ishlab chiqila boshlandi. Ilk bor XVIII asrning 60-yillarida Buyuk Britaniyada fabrika-zavodlarda band bo'lgan mehnatkashlarni majburiy ijtimoiy himoyalash va sug'o'rtalash tizimi joriy ettirildi. Mazkur asrning 80-yillarga kelib xuddi shunday qonunchilik hujjatlari Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi davlatlarda ham qabul qilina boshlandi.

XIX asr oxiriga kelib Germaniyada ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarni majburiy ijtimoiy himoyalash va sug'o'rtalash tizimining qonunchilik asoslari yaratildi. Uning tarkibiga kasallikdan (1883 yil), nogironlik va qarilikdan (1889 yil) hamda ishlab chiqarishning zararli oqibatlari va baxtsiz hodisalardan (1884 yil) muhofazalash to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari kirar edi. Ko'rib turganimizdek, ijtimoiy himoya tizimi davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida umummilliy, umumjahon, umuminsoniy ahamiyat kasb etib borishi rivojlangan Farb davlatlari tajribasiga xos bo'lib, aynan, XIX asrning 80-yillaridan, XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrni davlat ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi va qonunchilik asoslarini shakllanishining birinchi bosqichi sifatida qabul qilishimiz mumkin. Ikkinchi bosqichi esa, XX asrning 20-yillari oxiri – 60-yillari boshlarini o'z ichiga olib, I va II Jahon Urushlarida yo'qotilgan ulkan inson zahiralari umumjahon hamjamiyatining oldiga inson omiliga jiddiy yondashuv va e'tibor bilan munosabatda bo'lish, aynan, mukammal ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarining umumbashariy mezonlari, tamoyillarini, yo'nalishlarini ishlab chiqish ehtiyojini ko'ndalang qo'ydi.¹ Ushbu maqsadda, 1927 yilda qator davlatlar Xalqaro Ijtimoiy Ta'minot Uyushmasiga birlashdilar.² Uyushma

¹ Ромашов О. Социология труда. – М.: Гардарики, 1999. – 202 с.

² Международная ассоциация социального обеспечения // Энциклопедия. – Москва, 2003. – С. 549-550.
<http://issa.int.com>.

aholini ijtimoiy muhofazalash sohasida jahon miqyosida yalpi siyosatni amalga oshiruvchi tashkilot hisoblanib, uning faoliyati natijasida ijtimoiy himoyaning shakllari, mexanizmlari, usullarining zamonaviy asoslari yaratildi.

Ijtimoiy himoyaning bosh mezonlari, tamoyillari, maqsad va vazifalarining globallashuvi natijasida 1935 yilda AQShda chop etilgan «Himoya to'g'risidagi hujjat» (Security Act) da ijtimoiy muhofaza atamasi ilk bor qo'llanildi. 1938 yilda esa, Yangi Zelandiyada chiqarilgan «Ijtimoiy muhofaza to'g'risidagi hujjat» (Social Security Act) da ijtimoiy muhofaza tegishli sohaga xos atama sifatida ta'riflandi.³ Xullas, umumsosiologik ma'noda ijtimoiy himoya atamasi G'arbda har bir fuqaroni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan aziyat chekishdan, kasallik, farzand tug'ilishi, ishlab chiqarishda shikastlanishi yoki kasb kasalligiga yo'liqqanda, nogironligi, qariligi, boquvchisidan ajralganligi uchun daromaddan mahrum bo'lishi yoki uning keskin kamayib ketishidan himoya qilish chora-tadbirlarini belgilash tartibi sifatida keng qo'llanila boshlaydi.

Keyinchalik ijtimoiy himoya tushunchasiga yangicha yondashuvni U. Beveridj 1942 yil o'zining «Erkin jamiyatda to'laqonli bandlik» deb nomlanuvchi Angliya parlamentidagi ma'ro'z asida keltirib, ijtimoiy himoyaning zamonaviy mohiyatini ochib berish bilan birga uni amalga oshirishning mas'ul subyektlaridan biri davlat ekanligini asoslab beradi.¹ Uningcha, ijtimoiy muhofaza tizimi davlat miqyosida aholining barcha qatlamlari uchun yalpi holda amalga oshirilishi shart. Ingliz hukumati U.Beveridjning taklif va tavsiyalaridan unumli foydalanib, 1944-1948 yillar mobaynida jahonda birinchilardan bo'lib yalpi ijtimoiy muhofaza tizimining qonunchilik asoslarini yaratdi.

XX asrning 70-yillariga kelib ijtimoiy yo'naltirilgan umumfarovonlik davlati g'oyasi taraqqiy etgan davlatlarda mustahkam mavqeyeni egallab, ijtimoiy himoya yanada saxiy ko'rinishga ega bo'la boshlaydi.² Zero, bu vaqtga kelib rivojlangan davlatlarda ish haqiga nisbatan ko'mak pullarining miqdori oshirildi. Ko'mak pullari

¹ Beveridje W. Social Insuranse and Allied Services. – London: Report, 1942. – 140 p.

² Адамчук В., Ромашов О., Сорокин М. Экономика и социология труда. – М.: ЮНИТИ, 2001. – 393 с.

oluvchilarga qo'yiladigan talablar qisqartirildi. Mehnat huquqi yanada mustahkamlanib, imtiyozlar doirasi kengaytirildi.

Ijtimoiy muhofaza tizimi takomillashuvining uchinchi, zamonaviy bosqichi so'nggi 40-50 yillarni (XX asrning 60-yillar boshidan hozirgi vaqtgacha) o'z ichiga olib, bir tomondan mehnatning murakkablashuvi, jismoniy mehnatga nisbatan aqliy mehnatning ustuvor ahamiyat kasb etishi, ikkinchidan, mehnatni tashkil qilish va ishlab chiqarishda band aholini ijtimoiy muhofazalash muammolarini keskinlashtirdi. XX asrning 90-yillarga kelib ijtimoiy ta'minot va sug'o'rtaning turli-tuman shakllarini qo'llaydigan davlatlarning soni oshdi (1-ilova). Tizim samaradorligiga xizmat qiluvchi yangi mukammal mexanizmlar ishlab chiqildi. Aholining ijtimoiy huquqlarini qondirish va himoyalashga qaratilgan katta miqdordagi mablag'larga ega bo'lgan nodavlat ijtimoiy ko'mak jamg'armalari yo'z aga keldi. Shuningdek, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining bu boradagi faoliyatining qonunchilik asoslari yaratila boshlandi. Aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofazalashda mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvning ishtiroki natijasida turli tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikning muvofiqlashuvi sodir bo'ldi. O'z o'rnida, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy muhofaza o'ziga xos tizim sifatida davlat ichki to'z ilmasining takomillashuviga va ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvorligi ta'minlanishining omili sifatida rivojlanib bordi.

Xullas, ushbu band mohiyatidan kelib chiqib, biz quyidagi xulosalarimizni ilgari suramiz.

Birinchidan, ijtimoiy muhofazalash tizimi tarixiy taraqqiyotning turli davrlariga tegishli davlat, millatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog'liq holda bosqichma-bosqich rivojlangan.

Ikkinchidan, O'rta Osiyoda muhtoj qatlamlarni ijtimoiy muhofazalash tarixi aholining mahalliy jamoalar – mahallalarda yashash an'anasi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib bordi.

Uchinchidan, o'rta asrlarda Sharq va Farb davlatlarining ijtimoiy muhofaza tajribasini qiyosiy tahlili bizga ulardagi umumiylik qatorida, O'rta Osiyoda

jahonning boshqa davlatlarida ko'z atilmaydigan mahalla hodisasi yordamida shakllangan o'ziga xos ijtimoiy madad mavjud bo'lganligini ko'rsatdi.

To'rtinchidan, Farb davlatlarida boshlangan sanoatlashish jarayoni ta'sirida inson omiliga bo'lgan munosabat o'zgardi va natijada ijtimoiy himoya yalpi davlat siyosatiga aylandi.

Beshinchidan, ijtimoiy himoya rivojining zamonaviy bosqichida uning mukammal tizimini yaratilishi bilan bosh tamoyillar, mezonlarni o'zida mujassamlashtiruvchi umumjahon andozalari yaratildi.

Oltinchidan, ijtimoiy muhofaza tizimining tartibga solinishi vazifasi nafaqat davlatning, balki nodavlat to'z ilmalar, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari vakolatlari doirasiga kiritildi.

Insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari o'z xususiyatiga ko'ra o'xshash bo'lishiga qaramasdan, ushbu ehtiyojlarni qondirish borasidagi imkoniyatlari teng emas. Sababi, har bir jamiyatda bevosita ishlab chiqarish bilan band bo'lgan mehnat qobiliyatiga ega kishilar qatorida, o'zini-o'zi moddiy jihatdan ta'minlash imkoniyati cheklangan ijtimoiy nochor qatlamlar ham mavjuddir. Aynan mana shunday qatlamlarning insonga xos turmush tarzini kafolatlash, ularning iste'molchilik qobiliyatini oshirish, jumladan, mehnat munosabatlarini tartibga solish, daromadlar, ish haqi siyosati, nafaqa va aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy madad bilan ta'minlash mas'uliyati bevosita davlat, nodavlat va xususiy soha faoliyatining ustuvor yo'nalishini tashkil etadi. Zero, ilmiy tadqiqot obyekti hisoblangan aholini ijtimoiy muhofazalash o'zaro aloqalar va munosabatlarning shunday murakkab tizimidirki, ularning yalpi davlatning o'z fuqarolariga nisbatan olib boradigan aniq harakatlarida namoyon bo'ladi.

Sosiologiyada ushbu masalaga turlicha qarashlar bo'lib, eng avvalo, jamiyatda o'z qatlamlarni shakllantiruvchi ijtimoiy muammolar, kambag'allik, tengsizlik va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, fanning asoschilaridan E.Dyurkgeym (1858-1917) ning fikricha, «Zamonaviy jamiyatlarda o'zgarishlar shunchalik tez va jadal sur'atlarda ro'y bermoqdaki, natijada sezilarli ijtimoiy qiyinchiliklar yo'z aga kelmoqda».¹ Buni u anomiya hodisasi bilan

¹ Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – М.: Наука, 1990. – 40 с.

izohlab, unga ko'ra, jamiyatdagi muayyan ijtimoiy shart-sharoitlar oqibatida shakllangan tengsizlik individning mavjudligidan maqsad yo'qligini his etishiga sabab bo'ladi. Bunday holatlarni oldini olish uchun muallif jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi kasbiy uyushmalarni tashkil qilish taklifini ilgari suradi. Uning ishini mehnat sosiologiyasi fani vakillaridan E.Meyo (1880-1949) ham davom ettirib, nooqilona mehnat taqsimoti va boshqaruvning byurokratik usuli natijasidagi anomiya individlar o'rtasida keskin tabaqalanishga turtki bo'lishini ko'rsatib beradi. Darhaqiqat, zamonaviy jamiyatlarda sodir bo'layotgan hodisalar ijtimoiy muhitni murakkablashtirib, shaxsga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bizningcha, yolg'iz shaxsning mustaqil holda hayotiy muammolarini hal qilish imkoniyatiga ega emasligi uni sosiumning ajralmas qismiga aylantiradi hamda uning salbiy ta'siridan himoyalanganlik hissini keltirib chiqaradi.

J.Gelbreyt adolatli jamiyat mohiyatini o'rganar ekan, uning asosida daromadlarning oqilona taqsimoti yotishini aniqlaydi.² Ammo, bizga ma'lumki, zamonaviy bozor iqtisodiyotida moddiy boylik va daromadlar taqsimoti bir tekis emas. Bunday taqsimot har qanday jamiyat taraqqiyotiga xavf tug'diruvchi o'ta boy va qashshoq qatlamlarni shakllantiradi. Oqilona ijtimoiy muhofaza tizimi esa xuddi shunday keskinlikni yumshatishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi o'rta qatlam barqarorligini ta'minlashi mumkin.

Ijtimoiy muhofaza tushunchasining mohiyatini ochib berishdagi ilk fikrlardan biri Svidenkinning «Ijtimoiy siyosat» kitobida bayon etilib, unda muallif ijtimoiy himoyani «Butun jamiyatga taalluqli bo'lgan muammolarni hal etishga doir ijtimoiy harakatlarning amalga oshirilishidir»,— deb baholaydi. Ijtimoiy so'zining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, jamoaviy so'zining sinonimi bo'lib, ijtimoiy siyosat deyilganda bevosita — jamoaviy siyosat anglashiladi¹.

Bizning tadqiqotlarimiz fan olamida ijtimoiy muhofaza va uni tartibga solinishida mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari rolining nazariy asoslarini yaratishga urinishlar to'lqini XX asrning 50-yillarda asosan Farb davlatlarida boshlanganligini ko'rsatadi. Jumladan, AQShda F.Ryotlisberg, M.Follettlar tomonidan asos solingan «Insoniy

¹ Курбатов В. Современная Западная социология. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. – 283 с.

munosabatlar» maktabi namoyondalari ta'limotiga ko'ra, ijtimoiy ehtiyojlar va qadriyatlarning kafolatlanganligi ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bu ta'limot mehnat sosiologiyasi va psixologiyasidagi muhim bosqich bo'lib, uning asoschilari F.Teylorning «Iqtisodiy inson» nazariyasini, ya'ni, inson iqtisodiyotni harakatta keltiruvchi mexanizmlardan biri va uni moddiy manfaatlar yordamida boshqarib borish mumkinligi g'oyasini rad etadi. Zero, ijtimoiy muhofaza tamoyillaridan biri insonning nafaqat moddiy, balki, ma'naviy ehtiyojlarining uyg'unlikda qondirilganligidadir.

Ijtimoiy himoya nazariyasini yaratishdagi yirik ishlardan birini olimlardan L.Ryustov, V.Ryopke, F.Byole, V.Oyken va G.Grossman-Dertlar XX asrning 30-yillari oxirida amalga oshiradilar. Ular «Ijtimoiy bozor xo'jaligi» nazariyasini ishlab chiqib, jamiyat iqtisodiy hayotidagi yutuqlarga fuqarolarning ijtimoiy muhofazasini ta'minlaydigan erkin bozor to'z ilmasini shakllantirish orqali erishish mumkinligini ta'kidlab o'tadilar. Zotan, ijtimoiy bozor xo'jaligining mohiyati ijtimoiy adolat tamoyillarining tantanasi va ijtimoiy himoyaning ustuvorligi g'oyasiga asoslanganligidadir. Mualliflarning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda, mamlakatimizda bugungi kunda yuritilayotgan ijtimoiy siyosat o'z mohiyatiga ko'ra ushbu nazariyaga mosligini qayd etib o'tish joiz.

Bu kabi nazariyalardan biri «Umumfarovonlik davlati» nomini olib, unda ijtimoiy himoya tizimining taraqqiy etganligi davlat byudjetidan sohaga ajratilayotgan harajatlar ulushining miqdori va ijroiya hokimiyatning mas'uliyatiga bog'liqligi ko'rsatib beriladi.³ Nazariy jihatdan umumfarovonlik davlatida fuqarolik jamiyati institutlari taraqqiy etgan bo'lib, shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy huquqlarini himoyalash davlatning ustuvor maqsadi hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, biz sobiq sovet ittifoqi tajribasidan bilamizki, ijtimoiy sohaning to'liq davlat tasarrufida bo'lishi va soha muammolarini hal qilishda boshqa to'z ilmalar ishtirokining sezilarsizligi salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi¹.

Ijtimoiy muhofaza tabiatining o'zgaruvchanligini P.Kuusi o'zining «60-yillar uchun ijtimoiy siyosat» asarida ko'rsatib beradi va «Agarda avvallari ijtimoiy himoya «ojizlar» va

¹ Самуэльсон П., Нордхаус В. Экономика. – М.: Лаборатория Базовых Знаний, 2000. – 412 с.

«muhojlar»ga madad ma'nosini anglatgan bo'lsa, endilikda u butun jamiyat, davlatni qamrab oluvchi milliy iftixorga aylandi», – deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, barcha qadriyatlar, institutlar singari ijtimoiy muhofaza ham turli davrlarda o'zgacha mohiyat kasb etib kelgan. Uning tamoyillari, mezonlari va shakllari tegishli davlat taraqqiyoti yo'nalishlariga bog'liq holda takomillasha borgan.

Ijtimoiy muhofazalashning mohiyatini ochib berishdagi keyingi sharhlarda ushbu tushunchani o'zgacha anglash taklif etilgan. Jumladan, N.Volginning fikriga ko'ra, «Ijtimoiy siyosat – jamiyatning sinflari, qatlamlari, ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-kasbiy, ijtimoiy jamoa (oilal, millat, shahar, qishloq, mintaqa aholisi va hokazo) larni tashkil qiluvchi guruhlarining mavjud ijtimoiy ahvolini saqlab turish yoki o'zgartirish borasidagi o'zaro munosabatini aks ettiradi.² Albatta, ijtimoiy muhofaza huquqiy va moliyaviy institutlar tizimidan iborat bo'lib, ularning maqsadli vazifalari qariyalar, nogironlar, bemorlar, ishsizlar, boquvchisini yo'qotgan hamda muhoj oilalarni moddiy, tibbiy va boshqa yordam turi bilan ta'minlashdir. Shu maqsadni amalga oshirish jarayonida davlat, nodavlat va biznes to'z ilmalari o'zaro munosabatga kirishadilar va hamkorlik qiladilar.

P.Larok «Yuritilayotgan ijtimoiy himoya ma'lum davlatning rivojlanganlik darajasini belgilab beradi», – deydi. Bizningcha ham, davlatning moliyaviy imkoniyatlari ijtimoiy muhofazalash tizimining saxiy shakllarini joriy etish va daromadlarni qayta taqsimlash yo'li bilan insonga xos turmush tarzini o'rnatish kafolatini beradi.

S.Smironov va T.Sidorinalar o'rganilayotgan muammo yo'z asidan yirik ilmiy tadqiqotlar olib borib, «Ijtimoiy siyosat – davlat muassaslari, ish beruvchilar, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy-siyosiy to'z ilmalar tomonidan jamoatchilik fikrini e'tiborga olgan holda jamiyatni rivojlantirish maqsadida davlatning ijtimoiy strategiyasini shakllantiruvchi hamda fuqarolarning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ehtiyojlarini qondirish uchun muvofiq shart-sharoitlarni yaratish, fuqarolarning turmush darajasi sifatini oshirish, shuningdek, qarorlar qabul qilish hamda ularning amaliyotiga qaratilgan chora-tadbirlar, xatti-harakatlarning majmuasidir»,¹ – deb ta'kidlaydilar. Zotan, ishsizlik, kambag'allik, muhojlik, kasallik, mehnat qobiliyatini yo'qotish kabi ko'plab holatlar

¹ Волгин Н. Социальная политика. – М.: РАГС, 2005. – 537 с.

² Смирнова С., Сидорина Т. Социальная политика. – М.: Издательский дом ГУВШЭ, 2004. – 317 с.

ijtimoiy barqarorlikka taxdid soluvchi muammolardir. Xuddi shunday vaziyatga tushgan qatlamlarni ijtimoiy muhofazalash orqali mavjud muammolarni bartaraf qilish davlat va fuqarolik jamiyati to'z ilmalari, institutlarining birlamchi maqsadi hisoblanadi. Biz mazkur talqin ijtimoiy himoyaning asl mohiyatini o'zida aks ettiradi deb hisoblaymiz va uni qo'llab-quvvatlaymiz.

«Sosialnaya ensiklopediya» kitobida ijtimoiy siyosat tushunchasi ostida o'rnatilgan tartiblar, me'yorlar, qadriyatlardan kelib chiqib, jamiyatning har bir a'zosini ehtiyojlarini qondirish va ro'yobga chiqarishning qulay shart-sharoitlarini yaratish nazarda tutiladi. Zero, inson va uning ehtiyojlari ijtimoiy himoyaning obyekt, maqsadi va vazifalaridir.

Keyingi ta'riflardan nisbatan dolzarblari V.Kukushin tomonidan bildirilib, uningcha, «Aholining ijtimoiy himoyasi jamiyatni ijtimoiy boshqaruv tizimining muhim bo'g'imlaridan biridir». Sababi, aholining qay darajada ijtimoiy himoyalanganligi ma'lum ijtimoiy kayfiyatni shakllantiradi va ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi.

II.2.Alohida ehtiyojli kishilarni o'rganishda

Yaponiya tajribasi.

Yaponiyada ijtimoiy ish subyektlariga davlat hokimiyati va o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan bepul xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha asoslar belgilanishi mumkin. Davlat va munisipal ijtimoiy xizmatlarida pulli ijtimoiy xizmat ko'rsatish qonunchilik tomonidan belgilangan tartibda, xususiy va boshqa xizmatlarda mustaqil yoki o'zaro kelishilgan asosda ko'rsatiladi.

Ijtimoiy rehabilitasiya - ijtimoiy rollarni bajarishga axloqiy- ruhiy moslashtirishni optimallashtirishga, jismoniy kamchiliklarga ega bo'lgan (nogiron) odamlarni ishga joylashga; jismoniy, ruhiy va ijtimoiy funksiyalarni, odamning shaxsiy va ijtimoiy-mehnat mavqeyini tiklash, korreksiya yoki kompensasiya qilishga yo'naltirilgan tadbirlar (tashkiliy- mehnat, o'quv, tibbiy-psixologik, ijtimoiy-pedagogik va boshqalar) tizimidir.

Ijtimoiy himoya odamning hayoti va faol mavjudligi ehtiyojlarini qondirish, hayot sharoitining minimal darajasini kafolatlashga qaratilgan tadbirlar va muassasalar tizimi. Ijtimoiy himoya har bir odamga uning huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun, shu jumladan, me'yoriy turmush kechirish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni ro'yobga chiqarish uchun real imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan ijtimoiy va huquqiy kafolatlar yig'indisiga asoslanadi. Aholining eng kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalash davlat tuzilmalari, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalarining ijtimoiy-siyosiy faoliyatida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy himoya ish kuni davomiyligini qisqartirish, ish haqi, pensiya, nafaqa, turli ijtimoiy to'lovlar hajmini oshirish, turli yo'nalishdagi ijtimoiy va psixologik xizmatlarni tashkil qilish, imtiyozli xizmatlar ko'rsatish va boshqalar bilan bog'liq. Ijtimoiy himoyaning yo'qligi yoki zaifligi ijtimoiy taranglikning o'sishiga, ertangi kunga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga, noroziliklarga, agressivlikka olib keladi.

Ijtimoiy yordam (qo'llab-quvvatlash) hayotiy zarur bo'lgan muhim ehtiyojlari va faol turmush kechirish ehtiyojini qondirishga muhtojlik sezayotgan kam ta'minlangan ijtimoiy guruhlar, oilalar, alohida shaxslarning qoniqarli turmush sharoitlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya shakllaridan biri. Ijtimoiy yordam turli shakllarda: pul to'lovlari, natura ko'rinishida, xizmatlar va imtiyozlar shaklida muhtojlarga davlat tomonidan kafolatlangan va munisipal va mahalliy organlari, korxonalar, tashkilotlar, xayriya jamg'armalari, xususiy shaxslarning badallari va boshqalar hisobiga amalga oshiriladigan ijtimoiy himoya shakllariga qo'shimcha tarzda ko'rsatiladi. Ijtimoiy yordam ko'rsatishda boshqa tamoyillar bilan bir qatorda adreslilik va ustuvorlik tamoyili ham muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy o'ziga-o'zi yordam ko'rsatish – o'zining turmush kechirishi uchun tegishli shart-sharoitni ta'minlash maqsadida alohida individ yoki muayyan ijtimoiy guruh tomonidan qo'llanadigan ijtimoiy, ijtimoiy- psixologik va ijtimoiy-pedagogik vositalar yig'indisi.

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani: 1 - boyish, 2-garb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chikaprishiga kiritish masalasini kuydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi.

1872 yili «Ta'lim haqida» Konun kabul qilindi. Bunda yapon ta'limi garb ta'limi bilan uygunlashtirilgan .1893 yilda kasb ta'limi yunalishidagi birinchi kollej paydo bo'lgan.¹ 1908 yilda Yaponiya boshlangich ta'limni majburiy 6-yillik qilib belgiladi.

1946 yili kabul kilingan konstitutsiya fuqorolarning ta'lim soxasidagi xukuk va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishi shart ekanligi kayd etilgan. Xozirgi zamon yapon ta'lim tizimining tarkibi kuyidagicha: bogchalar, boshlangich maktab, kichik urta maktab, yukori urta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy ukuv yurtlari. Bolalar yoshlariga karab 3,2,1,yillik ta'lim

¹ Международная ассоциация социального обеспечения // Энциклопедия. – Москва, 2003. – С. 549-550.
<http://issa.int.com>.

kurslariga jalb kilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9 foizi xususiy, 40,8 foizi davlatnikidir.

Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70 foizini, kolgan 30 foizini butun kolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik xar doimgidek birinchi urinda turadi. Ko'pkina yaponkalarining aytishlaricha, bola tarbiyasi-ularning xayotlarining maqsadidir.

Yapon tarbiyachilarini bolalarni kichik gurux (xan) larga bulib ukitishlari maktabgacha tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri bulib xisoblanadi. Bu guruxlar o'zlarining stollariga, bolalarning o'zlari tanlagan shaxsiy nomlariga, (bu bolalarda karorlar kabul qilishda, o'zgalar fikrini xurmat qilish, gurux a'zolarini barchasini tashabbuskor bulishga) urgatadi. Bunday usul kichik maktablarda ham, urta maktablarda ham davom etadi. Bu guruxlar o'rtacha xar 5 oyda shakllanib turadi. Yapon bolalariga sinfni boshkarish juda yokadi . Shuning tuchun xar kuni bolalarning o'zlari (toban) boshkaruvchi tanlaydilar. Xar bir bola bu vazifani bajarib kuradi.

Boshlangich maktabda ukituvchilar bolalarni tankidga, ya'ni o'z xulklarini yomon tomonlarini, maktabdagi kamchiliklarni tankid qilishni urgatadilar. Bundan kurinib turibdiki, ukituvchi fakat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning xar tamonlama rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham Yaponiyada ukituvchi kasbiga kata e'tibor beriladi. Yaponiya-rivojlangan davlatlar ichida ukituvchining maoshi davlat raxbarlari maoshidan ham yukori bo'lgan yagona davlatdir.

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pogonasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlangich ta'lim va 3 yillik urta maktab 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi va u bepuldir. Muxtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, ukuv kurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan xollarda ularning oilalariga moddiy yordam kursatiladi. Shu bilan birga Yaponiyada xususiy maktablar ham mavjud.

Yukori urta maktab 10,11,12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kundo'zgi, sirtki, kechki bulimlari mavjud. Ukuvchilarning 95 foizi kundo'zgi maktablarda ukiydi.

Yaponiyada ukuv yili -240, AKShda - 180 kun. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar kuniga 7 soatdan utiladi.

Universitetlarga yukori va urta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan ukuvchilar kabul kilinadi. U yerda 460 ta universitet bulib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munisipial, 31 tasi xususiydir. 1-toifadagi universitetlarda xar bir ukituvchiga 3 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba tugri keladi. Universitetlarga kabul qilish ikki bosqichga bulinadi: 1-bosqichi turar joyda utkaziladi, buning uchun eski yapon tili, matematika, fizika, kime, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan utiladi.

Yaponiyada oliy ta'lim majburiy xisoblanadi va u kasb ta'limi bilan o'zviy boglikdir. Oliy ta'lim tizimi kuyidagiturlarni o'z ichiga olodi.

1. Tulik sikldagi universitetlar (4 yil).
2. Tezlashtirilgan universitetlar sikli (2 yil).
3. Kasb ta'lim kollejlari .
4. Texnika institutlari.

Liberal yondashuvda insonning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish nazarda tutilsada, ijtimoiy to'lovlar, sug'o'rta tizimining xilma-xilligi katta miqdordagi mablag'larni talab etadi. Natijada davlat byudjetida tanqislik sodir bo'lib, mahsulotlar va xizmatlar ta'minotida o'z ilishlar yo'z aga keladi. Xuddi shunday holatlar, ijtimoiy muhofaza tizimida fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari kabi jamoatchilik va nodavlat to'z ilmali ishtirokining dolzarbligini oshiradi.

Hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlarda aholini ijtimoiy himoyalashning mohiyati davlat tomonidan belgilangan faoliyat turi yoki mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ijtimoiy kafolatlar majmui bo'lmoqda. Ushbu kafolatlar mamlakatning har bir fuqarosini (ba'zan har bir yashovchisini ham) ishsizlik, daromadlardan mahrum bo'lish, bola tug'ilishi, ishlab chiqarishda shikastlanish, kasbiy kasallikka chalinishi, nogironlik, keksalik,

boquvchisidan ajralganlik va hokazolar oqibatidagi iqtisodiy va ijtimoiy tanazzuldan himoya qiladigan chora-tadbirlar tizimidan iborat.

Tabiiyki, bunday murakkab, keng ko'lamli tizimni mustahkam qonunchilik asoslarsiz yaratib bo'lmaydi. So'nggi vaqtlarda ijtimoiy himoya milliy qonunchiligining poydevori sifatida xalqaro huquq me'yorlari va hujjatlari qabul qilinmoqda. Ularning asosiylari Xalqaro iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy huquqlar Pakti, Xalqaro fuqarolik va siyosiy huquq Pakti, Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Xalqaro Sog'liqni Saqlash Tashkiloti, Xalqaro Ijtimoiy Ta'minot Uyushmalari tomonidan yaratilgan qonunchilik hujjatlaridir¹. Ushbu tashkilotlar jahon miqyosida turli davlatlarda ijtimoiy siyosatning oqilona yuritilishini nazorat qilib boradi va ijtimoiy nochor qatlamlarning huquqlarini paymol etilishi holatlarini oldini oladi.

Ijtimoiy ishning xorij tajribasi turli-tuman va xilma-xildir, deyarli barcha mamlakatlarda ijtimoiy ish xodimlari mavjud. Ulardan ba'zi birlari ixtisoslashgan o'quv muassasalarida turli darajadagi tayyorgarlikdan o'tgan bo'lib, ular o'zlarini profesional deb hisoblaydilar. Ba'zilar esa professional tayyorgarlikka ega bo'lmay, ijtimoiy ish bilan jamoatchilik ko'li bilan shug'ullanadilar yoki muassasalarda yordamchi lavozimlarda yollanib ishlaydilar.

Ijtimoiy ish xodimlari zamonaviy jamiyatning turli lavhalardagi va turli darajalardagi xilma-xil masalalarni hal etadi. Jumladan; individlar, oilalar, kichik guruxlar, bolalar, qariyalar bilan ishlash, tibbiy muassasalarda konsultant va psixoterapivt bo'lib ishlash; ijtimoiy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish uchun moliya resurslarini topishga harakat qiladilar. Shuningdek, oiladagi zo'ravonlik ko'rinishlarini bartaraf etishga intiladilar, qashshoq kishilarni tibbiy xizmat bilan ta'minlashga harakat kiladilar va hokazolar bilan shug'ullanadilar,

Ijtimoiy ishdagi yo'nalishlarning xilma-xilligi bir tomondan hozirgi zamon jamiyati tizimidagi ijtimoiy muammolarining turli jihatlarini va ular yechimining xilma-xil variantligini tasavvur qilishga imkon bersa, boshqa tomondan, ijtimoiy

¹ Beveridge W. Social Insurance and Allied Services. – London: Report, 1942. – 140 p.

ish zamonaviy ijtimoiy munosabatlarning ajralmas qismi ekanligidan dalolat beradi.

«Ijtimoiy ish» sohasi XIX asr oxirida sanoat jihatidan ancha rivojlangan mamlakatlarda rivojlanib bordi. Biroq ijtimoiy institut va kasb sifatida bu tushuncha XX asr mobaynida asta-sekin qabul kila boshlashdi va birinchi bor bu ma'noda Shimoliy Amerika va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida institutlashdi va takomillashtirildi.

Yaponiya va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida pozitivizm va liberalizm vakillarining, shaxning normal xayot kechirishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berilishi lozimligi haqida davlatning shaxs oldidagi javobgarligi va ma'naviy burchi to'g'risidagi, shuningdek vujudga kelgai ijtimoiy muammolarni aniq va ilmiy yo'llar bilan hal etksh, yordamga muxtoj har bir shaxsga individual yondashish lozimligi haqidagi karashlari ijtimoiy islohotlar o'tkazilishi zarurligi to'g'risida tushunchalarning shakllanishiga turtki bo'ldi.

Shunday qilib, aholiing himoyalangan tabaqalariga izchil tarzda yordam ko'rsatishning xayriya va filavtropiya tabiatini yo'qotadi. Va yangi sifat :kasb etib - «Ijtimoiy ish» degan munosib va muvofiq nomga ega bo'ldi. Bir vaqtning o'zida faoliltning yangi shaklyaari vujudga keldi. Xususan, AQSh va Angliyada immigrantlar uchun aholi surunkali tashkil etuvchi, settlment harakati (The settlment house movement) Germaniya, Finlyandiya, Shvesiyada davlat xizmatchilarining qisman ishtiroki bilan qashshoqlarga yordam berishning Elberfeld tizimi (Elbsrfeld System) va boshqalar tashkil etildi.

XX asrning birinchi yarmida davlatning iqtisodiy jarayovga aralashuvini v kuchayishi va «davlatning umum farovonlik» nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi bilan shartlangan ijtimoiy ish instyatut lashuvi bilan tavsiflanadi.

Professionoal faoliyatiing lbgidosi deb, odatda ijtimoiy xodimlarning asosiy hukuq va majburayatyaaarining e'tirof etilishi va ular mehratiga rasmiy haq, to'lashing tashkil etilishi va shunga muvofiq yangi o'quv muassasalarining ixtissyaashgaya asosiasiyalarning vujudga kelishi va yaratilshpi bilan

xdsoblaydilar. Yuqorida ta'kidlanganidek, «ijtimoiy ish xodimi» kasbi avvai AKShda so'ngra G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy statusga ya'ni, maqomga ega bo'ldi. Ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlovchi birinchi ixtisoslashgan o'quv muassasalari birinchi bo'lib, Niderlandiyada (1910 yil) so'ngra AKSh, Buyuk Brtaniya va Germaniyada ochildi. Birinchi va Ikkinchi jahon urushi davrlarida bunday o'quv mussasalari Britaniya hamkorlidida Lotin Amerikasida to'z ildi. Ikkinchi jaxon urushidan so'ng ijtimoiy ish maktablari Osiyo, Yaponiya, Yaqin va O'rta Sharq, Sharqiy Yevropa, keyinchalik Afrika mamlakatlzrida ham ochildi.

Hozirgi vaqtda dunyoda ijtimoiy sohaga ixtisoslashgan ijtimoiy ish uchun, kasbiy maxoratga ega kadrlar tayyorlovchi o'nlab universitetlarda fakultetlar va oliy maktablar mavjud. Masalan. Yaponiya mamlakatida ijtimoiy ish sohasi bo'yicha ta'lim beruvchi 50 dan ortiq o'quv muassasalari bor. Ko'pchilik mamlakatlarda bu ta'lim tizimi davlat tomonidan moliyalashtirildi. Shu bilan birga xususiy oliy o'quv yurtlari va maktablar ham kam emas. XX asrning 60 yillarida xorijda yangi ijtimoiy ish o'quv muassasalari juda ko'p ochildi va avj olib rivojlandi. Bu davr sanoat taraqqiyotining rivojlanishi, urbanizasiya jarayonining jadallashuvi va Aholi joylashuvi bilan tavsiflanadi. Bir vaqtning o'zida oila instituti doirasida ham sezilarli o'zgarishlar yo'z berdi. Shu vaqtlarda ijtimoiy ish bilan shug'ullanuvchi ko'plab milliy va xalqaro assoiiasiyalar tashkil etildi. Maxsus nashrlar tashkil etilib, ijtimoiy ishga oid kitoblar va maxsus jurnallar chiqarila boshladi. Ijtimoiy ish xodimlarining xalqaro axloq kodeksi ishlab chiqildi. Yevropa va Yaponiya mamlakatlarida, davlat ijtimoiy-siyosiy tadbirlarini o'tkazish bilan bir qatorda ijtimoiy xizmatlarning yangi tizimlari yaratildi. Bolalarga yordam berish imkoniyatlari kengaytirilib, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun davolash-reabilitasion muassasalar va markazlar tarmog'i yaratildi,

60 yillardagi ijtimoiy ish, avval hukm surgan «ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasidagi xodim» tushunchasining o'rnini oshdi va maxsus professional faoliyat sifatida dunyo miqyosida rasman tan olishdi¹.

Professionoal faoliyatining ibtidosi deb, odatda ijtimoiy xodimlarning asosiy huquq va majburayatyalarining e'tirof etilishi va ular mehratiga rasmiy haq to'lapshing tashkil etilishi va shuyaga muvofiq yangi o'quv muaseasalarini v g ixtissiyaashgaya asosiasiyalarning vujudga kelishi va yaratilshpi bilan xdsoblaydilar. Yuqorida ta'kidlanganidek, «ijtimoiy ish xodimi» kasbi avvai AKSh da so'ngra G'arbiy Yevropa mamlakatlarqda ijtimoiy statusga ya'ni, maqomga ega bo'ldi. Birinchi va Ikkinchi jahn urushi davrlarida bunday o'quv mussasalari Britaniya qamkorligkda Lotin Ameryakasida to'z ildi. Ikkinchi jaxon urushidan so'ng ijtimoiy ish maktablari Osiyo, Yaponiya va O'rta Sharq, Sharqiy Yevropa, keyinchalik Afrika mamlakatlzrida ham ochildi.

Ijtimoiy ish ijtimoiy institut sifatida - barqaror tizim vositasida «zaiflashgan» ijtimoiy guruxdar va aloxdda individlarning ijtimoiy shyuqalari, munosabatlariyai ko'dlab-kuvvatlash singari aloxdda qo'shimcha vazifalarni ham bajaradi.

Ijtimoiy ish ijtimoiy farovonlik tizimi deb, ataluvchi aholini ijtimony ta'minlash va ijtimony xizmat ko'rsatish, ijtimoiy himoyalashning yaxlit tizimini tashkil etuvchi davlat muassasalari, ijtimoiy va xususiy tashkilotlar; shu soqa uchun mutaxassislarni tayyoryaovchi oliy va o'rta maxsus o'quv muassasalari; boshqa mafko'ra viy-g'oyaviy institutlar bilan birga umumqadriyatlar tizimiga ta'sir etuvchi institutlar majmui deb qaraladi.

Farb davlatlari va Yaponiyadagi keyingi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy voqyealar inson va uning shaxsiy erkinligi, haq-huquqlari oliy maqsad ekanligi to'g'risidagi g'oyalarning yoyilishiga turtki bo'ldi. Endilikda, oilaviy-jamoaviy g'amxo'rlik munosabatlariga putur yetib, ijtimoiy muhofazaning davlat miqyosidagi yangi ta'limotlari ishlab chiqila boshlandi. Ilk bor XVIII asrning 60-yillarida Buyuk

¹ Рамзей Р. Социальная работа: наука-профессия. К развитию концепции. / Социальная педагогика и социальная работа за рубежом,— Социальная работа,— Вып.6.— М., 1991.

Britaniyada fabrika-zavodlarda band bo'lgan mehnatkashlarni majburiy ijtimoiy himoyalash va sug'o'rtalash tizimi joriy ettirildi. Mazkur asrning 80-yillarga kelib xuddi shunday qonunchilik hujjatlari Germaniya, Fransiya, Avstriya, Yaponiya kabi davlatlarda ham qabul qilina boshlandi.

XIX asr oxiriga kelib Germaniyada ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarni majburiy ijtimoiy himoyalash va sug'o'rtalash tizimining qonunchilik asoslari yaratildi. Uning tarkibiga kasallikdan (1883 yil), nogironlik va qarilikdan (1889 yil) hamda ishlab chiqarishning zararli oqibatlari va baxtsiz hodisalardan (1884 yil) muhofazalash to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari kirar edi. Ko'rib turganimizdek, ijtimoiy himoya tizimi davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida umummilliy, umumjahon, umuminsoniy ahamiyat kasb etib borishi rivojlangan Farb davlatlari tajribasiga xos bo'lib, aynan, XIX asrning 80-yillaridan, XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrni davlat ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi va qonunchilik asoslarini shakllanishining birinchi bosqichi sifatida qabul qilishimiz mumkin. Ikkinchi bosqichi esa, XX asrning 20-yillari oxiri – 60-yillari boshlarini o'z ichiga olib, I va II Jahon Urushlarida yo'qotilgan ulkan inson zahiralari umumjahon hamjamiyatining oldiga inson omiliga jiddiy yondashuv va e'tibor bilan munosabatda bo'lish, aynan, mukammal ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarining umumbashariy mezonlari, tamoyillarini, yo'nalishlarini ishlab chiqish ehtiyojini ko'ndalang qo'ydi. Ushbu maqsadda, 1927 yilda qator davlatlar Xalqaro Ijtimoiy Ta'minot Uyushmasiga birlashdilar.

Xulosa

Normallashtirish tamoyilini shakllantirish vaqtida avvalambor aqliy buzilishlarga ega bo'lgan insonlarni parvarishlash xizmatini umum qamrov shakllantirish tamoyilini topish , "tibbiy modelga " qaram bo'lmagan xolda

jamiyatda yashash ehtiyojini ko'rsatish xaqida so'zlangan. Ushbu nom bilan avvalambor imkoniyat va qobiliyatlarni emas, balki buzilishlarni ko'ra oladigan tizim nomlangan. Bu tizim istalgan "kasalxonalar", yopiq muassasalarni va izolyasiyalarni yuzaga keltirgan.

Normallashtirish tamoyili barcha funksional buzilishlarga ega bo'lgan, kelib chiqish sababalaridan qat'iy nazar oilalaridan, jamiyatdan, madaniyatdan maxrum bo'lish xavfi bo'lgan insonlarga tegishli bo'lib, bu tamoyil ularning reabilitatsiyasi va ijtimoiy integratsiyasi uchun xizmat qiladi.

Normallashtirish - funksional buzilishlarga ega bo'lgan shaxslarga imkon qadar normal kundalik ritmni tashkil etishni angelaydi. Bu degani insoni xarakter doirasida va rivojlanishida sezilarli orqada qolish bo'lganda xam krovatdan o'rindan turib kiyinishi zarurdir. Bu esa ovqatni normal sharoitlarda iste'mol qilish zarurligini anglatadi: kun davomida bir marotaba ko'pchilik bilan guruxlarda yeyish mumkin - maktabda, ishda - ammo, asosan ovqatni oilaviyga o'xshash tinch, osuda sharoitlarda iste'mol qilish (qabul qilish) kerak.

Normal kundalik ritm shuningdek, o'z tengdoshlaridan kichik uka va singillaridan ertaroq uxlash zaruriyatini yo'qligini anglatadi va bu faqat xizmat ko'rsatuvchilarning yetishmasligidandir. Atrof muxit xam shunday tuzilishi kerakki, unda konkret inson uchun shaxsiy kundalik ritm xam e'tiborga olinishi kerak: bu esa ba'zida gurux tartibidan chetga chiqish uni buzish imkoniyatining mavjudligini angelaydi.

Normal kundalik (sutkalik) ritmni yo'qligi - yirik yopiq muassasalarda nogironlikni shakllanishini yaqqol namoyondasi bo'la oladi: u yerda tartibga nogironlikni shakllanishini imkoniyati bo'lmaydi. qat'iy intizom va tartib barchada kuchsizlik va yordamga muxtojlik xissini vujudga kelishiga olib keladi. Yangi muxitda yakka tartibdagi mashg'ulotlarni olib borilishi xatto iqtisodiy jihatdan xam yaxshi natijalarga xizmat qilishi (olib kelishi) mumkin. Shvesiyadagi yirik yopiq muassasalarda o'tkazilgan eksperimental ish natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu dasturning qo'llanilishi yuvilishi zarur bo'lgan kiyim va choyshablar sonini bir yilda besh tonnaga qisqarishiga olib keldi. Shunga asosan 600 ish soatlari

bo'shadi, uni ishchilar pol artish va choyshablar almashtirishga emas, balki parvarishlaridagi inson bilan ijobiy ishga bag'ishlashlari mumkin bo'ldi. Normal kundalik ritmda yashash uchun pedagogik metodlarni qo'llab kundalik xayotda zarur bo'lgan turli faoliyat turlariga, ijtimoiy malakalarga aloxida e'tibor berish lozim. Ular bilim va malakalarni egallashdagi aniq qiyinchiliklarga moslashgan bo'lishi lozim.

Og'ir nuqsonlarga ega nogiron bola va uning oilasi yoki o'z yaqinlari bilan yashovchi qo'shimcha nogironlikka ega bo'lgan katta yoshdagilar iloji boricha normaga yaqin kundalik ritmga ega bo'lishlari uchun ko'p xollarda maxsus malakaga ega bo'lgan uy xizmatchisi tomonidan qo'llab quvvatlanishi talab etiladi. Barcha nogironlar kun davomida tayyorlov yoki oddiy maktablarga borishlari, xizmatga yoki biror mashg'ulotlarga qatnashlari uchun uydan chiqish imkoniga ega bo'lishlari kerak. Shuningdek bo'sh vaqtlarini o'z istaklariga ko'ra o'tkazishlari kerak. Bularning barchasi nogironlar uchun maxsus transport vositalari bo'lishi kerak.

"Normal kundalik ritm" tushunchasi yopiq muassasalarning kamchiliklarini bo'rttirib qo'yadi va yopiq muassasalarda yashovchi funksional buzilishlarga ega insonlarni ochiq jamiyatdagi extiyojlarini ko'rsatadi".

Normal xaftalik ritm.Ko'pchilik insonlar bir joyda yashashadi, boshqa yerda ishlashadi yoki o'qishadi, bo'sh vaqtlarida esa turli joylarda o'tkazishadi. Demak, aqliy buzilishga ega inson masalan, u uchun uy bo'lib qolgan muassasada yoki binoda u kundalik faoliyati bilan shug'ullanishi va shu bilan bo'sh vaqtlarini xam shu yerda o'tkazishi noto'g'ridir.

Uy - bu shunday shaxsiy maydonki, u yerda inson o'zi xoxlaganicha yashaydi, shaxsiy, oilaviy xayot kechiradi. U yerdan osudalik va tinchlik topish mumkin. Maktab va ish joyi katta xisobda shaxsiy bo'lmagan funksiyani bajaradi: ular individning madaniy va ijtimoiy munosabatlarini shakllantiradi. Shuningdek, madaniy meros assimilyasiyasini yoki jamiyatning talablari va baxolashiga moslashish imkonini yaratadi. Bo'sh vaqtini o'tkazilishi shaxsiy va shaxsiy bo'lmagan funksiyalari birligini beradi, shuningdek o'zini ko'rsatish, tanlash va

o'z qiziqishlarini qondirish imkonini beradi. U o'z ichiga boshqa insonlar bilan (kontaktda) muloqotda bo'lishni va ularga moslashishni oladi.

Jamiyatdagi xayot ayrim insonlar yoki kichik guruxlar uchun ish ta'minlovchi xamkorlar yordamida topish imkonini kengayishini - bu ish inson qiziqishlari va imkoniyatlariga to'g'ri kelishi, shuningdek ushbu joyning o'ziga xos shart sharoitlariga mos kelishini anglatadi. Bu ijtimoiy integrasiya uchun xam katta ahamiyat kasb etadi.

O'quv va ish xaftasining so'nggida dam olish kunlari keladi, ular oila bilan birga bo'lish, biror joyga borish, do'konga chiqish, xordiq chiqarish, bayram tashkil etish, do'stlar va yaqinlari bilan uchrashish, sayr qilish, tabiatda xordiq chiqarish sport bilan shug'ullanish, musiqa eshitish, sevimli ish bilan shug'ullanish imkonini beradi . Bu shunday narsaki, uni oldindan kutishadi, rejalashtirishadi va xursanchilik bilan kelishishadi. Bu uyda aloxida o'zi yoki biror kim bilan yashaydigan barchaga tegishli. Dam olish kunlarida yolg'iz qolish - g'amgin tuyuladi, bo'shlik xissini uyg'otadi va inson ko'nglini cho'ktiradi – ayniqsa agar u doim takrorlanib tursa.

Ushbu asosdagi xaftalik ritm (uy - maktablar, ish -bo'sh vaqt-uy) shuningdek, nogironlarni parvarishlash bo'yicha jamiyatni barcha xarakterlarini funksional rejalashtirishni va koordinasiyani talab etadi . Bolalar bog'chalari, tayyorlov va oddiy maktablar nafaqat o'z oilalarida yashovchi nogiron bolalarga balki maktab yotoqxonalarida va jamoa bilan yashash uylarida yashovchi bolalarga mo'ljallanishi lozim. Aynan shu narsa maxsus jixozlangan ustaxonalarga va kattalar uchun mo'ljallangan kunduzgi markazlarga ta'lluqli. Ular nafaqat o'z uylarida balki ijtimoiy uylarda yoki jamoa bo'lib yashovchi uylarda xam imkoniyat darajasida bo'lishi kerak. Xuddi shu singari bo'sh vaqtni o'tkazishni jamiyat dasturi xam o'z uylarida yashovchilar va boshqa turmush tarzida xayot kechiradiganlarni xam mo'ljallashi kerak. Shuningdek, ularni dam olish kunlarida ijtimoiy extiyojlari inobatga olinadi. Bunday funksional rejalashtirish nafaqat yopiq muassasalarni "ochishga" yordam beradi, balki uyida aqliy buzilishga ega bo'lgan farzandlari bor ota-onalarga tanlash erkinligini beradi. Ularni katta

yoshdagi o'g'il va qizlari o'zlari ko'nikkan uyga monand turar joy tanlashlari mumkin .

Normal xaftalik ritmda yashash funksional buzilishlarga ega odamlar uchun ijtimoiy treningga va tajriba yig'ishga ko'p imkoniyatlar beradi, jamiyatni boshqa a'zolari bilan bir xil xayot shart sharoitlarida ekanligini anglashi, inson o'z rivojlanishi va yetilishida salmoqli o'rin tutadi.

Shakliga ko'ra turlicha turar joy yoki mashg'ulot o'tish uchun mo'ljallangan joy vakillari xarakteriga binoan atrofdagilarni kuzatish va axborot almashinish jarayoni natijasida u yangi tajriba va bilimlarini egallaydi. Bu esa uning shaxsiy motivasiyasini va kasbiy statusini oshiradi. Yopiq muassasalarda bu rivojlanish vakillari (xizmatchilari).

Ilgari o'z parvarishlarida bo'lgan insonlar uchun "xos" bo'lgan o'zini xulqi, tutishi shakllarini yo'qotib xayot sharoitlarini yaxshilashishi tufayli o'z shaxsiy motivasiyasini oshib borishi sezilarli tusda bo'ladi.

Yirik yopiq muassasalarda normal xaftalik ritmni ilojisi bo'lmagan — ilojisi yo'q va u jamiyatni, nogironlarni parvarishlash bo'yicha barcha xarakterlarini funksional koordinasiyasini talab etadi.

Normallashtirish bu barcha fasllar almashinuvi va shaxsiy bayram va an'analarni inobatga olgan xolda normal yillik ritmda yashashni angalaydi. Normal yillik ritm nafaqat fasllar almashinuvi yoki an'analarni, oila a'zolarining shaxsiy bayramlarini balki, shuningdek ijtimoiy tadbirlar va maxalliy va diniy bayramlar bilan bog'lik odatlarni ifodalaydi. Yil davomida ish kunlari izchilligini buzuvchi bu bayramlar va to'xtalishlar faollik va tajribaga ovqatlanishi va kiyim tanlashga, uydagi va uning tashqarisidagi xayotga, masalan diniy va madaniy, sport an'analariga ta'sir etadi. Bu ijtimoiy malakalarni bo'lishini talab etadi. Lekin hech kim o'z funksional buzilishlari tufayli chetda qolishi kerak emas.

Turli jamiyat tadbirlarida ishtirok etish, fuqarolik tajribasini va o'ziga bo'lgan ishonchni, o'zini to'g'ri baxolashni va umum tan olingan ijtimoiylashuvni beradi. U yoki bu muxitda og'ir nogironlarni mavjudligi aloxida ba'zi fikrlarni yengib o'tishga sabab bo'ladi.

Yirik yopiq muassasalar o'zida normal bo'lmagan muxitni namoyon etadi. U yerda yil fasllarini almashinuvi tashqariga nisbatan sustroq seziladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Biz qurish va yaratish yo'lidan boraveramiz. T. «O'zbekiston» 1995.
2. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T., 2008, 53-b.
3. «O'zbekiston ovozi» 1996 yil 12 dekabr.
4. I.A. Karimov «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» 2011 yil 69-71 betlar.
5. I.A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent. «Sharq», 1998.
6. Antonov A.I., Medkov V.M. Sosiologiya semi. Moskva, 1996, str.60.
7. Romashov O. Sosiologiya truda. – M.: Gardariki, 1999. – 202 s.
8. Mejdunarodnaya assosasiya sosialnogo obespecheniya // Ensiklopediya. – Moskva, 2003. – S. 549-550.
9. Beveridge W. Social Insurance and Allied Services. London: Report, 1942. 140 r.
10. Adamchuk V., Romashov O., Sorokin M. Ekonomika i sosiologiya truda.- M.: YuNITI, 2001. – 393 s.
11. Dyurkgeym E. O razdelenii obshchestvennogo truda. Metod sosiologii. – M.: Nauka, 1990. – 40 s.
12. Ignatov V., Butov V. Mestnoye samoupravleniye: Rossiyskaya praktika i zarubejnyy opyt. – M.: MarT, 2005. – 335 s.
13. O'zbekistonda ma'naviyat, ma'rifat, fan va jamoatchilik fikri. Jamoatchilik fikrini o'rganish "Ijtimoiy fikr" Markazi hisobotidan // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – Toshkent, 2003. - №1. – 139 b.
14. M.B. Bekmurodov., A. Begmatov. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati. – Toshkent: Adolat, 2003. – 60 b.
15. Ramzey R. Sosialnaya rabota: nauka-professiya. K razvitiyu konsepsii. / Sosialnaya pedagogika i sosialnaya rabota za rubejom,— Sosialnaya rabota,— Выр.6.— М., 1991.
16. A. Xolbekov. Boshqaruv sosiologiyasi. – Toshkent: Akademiya, 2007. – 10 b.

17. Mejdunarodnaya assosasiya sosialnogo obespecheniya // Ensiklopediya. – Moskva, 2003. – S. 549-550.

<http://issa.int.com>.

18. O'zbekistonda ma'naviyat, ma'rifat, fan va jamoatchilik fikri. Jamoatchilik fikrini o'rganish "Ijtimoiy fikr" Markazi hisobotidan // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – Toshkent, 2003. - №1. – 139 b.

19. M.B.Bekmurodov., A.Begmatov. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati. – Toshkent: Adolat, 2003. – 60 b.

20. Ignatov V., Butov V. Mestnoye samoupravleniye: Rossiyskaya praktika i zarubejnyy opyt. – M.: MarT, 2005. – 335 s.

21. Louson T., Gerrod Dj. Sosiologiya A-Ya. Slovar-spravochnik. – M.: Fair-Press, 2000. – 436 s.

22. Samuelson P., Nordhaus V. Ekonomika. – M.: Laboratoriya Bazovyx Znaniy, 2000. – 412 s.

23. Kurbatov V. Sovremennaya Zapadnaya sosiologiya. – Rostov-na-Donu: Feniks, 2001. – 283 s.

Bitiruv malakaviy ishi muqovasining ustki jildi namunasi

**Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi
Ijtimoiy ish kafedrası**

**Mavzu: Alohida ehtiyojli kishilar bilan ijtimoiy
ish olib borishda jahon tajribasini
o'rganishning ahamiyati**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Mamanova Yu.

Ilmiy rahbar: ass.Tangirova M.

Samarqand - 2013

Izoh: Bitiruv malakaviy ishi muqovasining ustki jildiga ramka ichidagi namuna qirqib yopishtiriladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOY-IQTISODIYOT FAKULTETI

IJTIMOY ISH YO'NALISHI

IJTIMOY ISH KAFEDRASI

**Mavzu: Alohida ehtiyojli kishilar bilan ijtimoiy ish olib
borishda jahon tajribasini o'rganishning ahamiyati.**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Mamanova Yu.

Ilmiy rahbar: ass.Tangirova M.

**Malakaviy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2013 yil ____ ____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayyonnoma№____).**

Kafedra mudiri:

dots.Jo'rayev L.N.

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2013 yil ____ ____dagi majlisida himoya
qilindi va __ foizga baholandi (bayyonnoma №____).**

Samarqand – 2013.

SamDU «Ijtimoiy ish» kafedrası majlisining № 9 sonli bayonnomasidan

K O' C H I R M A

10.06.2013.

Samarqand shahri

Qatnashdilar: Kafedra a'zolari

KUN TARTIBI

3. Xar xil masalalar: Ijtimoiy ish kafedrası 4 kurs talabalarining bitiruv malakaviy ishlarini himoyaga tavsiya etish haqida.

Eshitildi: dots.L.N.Jo'rayev – hurmatli kafedra a'zolari, bugungi kafedra yig'ilishimizda, Ijtimoiy ish kafedrası 4 kurs talabalarining bitiruv malakaviy ishlarini himoyaga tavsiya etishimiz kerak. Hozir bitiruvchi talabalarimizni bitiruv malakaviy ishlarini navbati bilan eshitib, muhokama qilib himoyaga tavsiya etsak.

Mamanova Yulduzning mavzusi: «Alohida ehtiyojli kishilar bilan ijtimoiy ish olib borishda jahon tajribasini o'rganishning ahamiyati» deb nomlanadi. Bitiruv malakaviy ishiga kafedramiz ass.Tangirova M. ilmiy rahbarlik qilgan. Yana bitiruv ishi uchun SamISI «Ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrası mudiri, dotsent M.Bo'riyev ham ijobiy baholab, himoyaga tavsiya etgan. Bitiruvchini o'zi ham o'z tadqiqot ishining mazmun –mohiyati bilan tanishtirdi.

Uning bitiruv malakaviy ishini kafedra dotsenti A. Ro'zimurodov va o'qituvchi U.Abduraxmonovlar ham ijobiy baholab, himoya uchun tavsiya etdilar.

Dots.L.N.Jo'rayev – agar Mamanova Yulduzning bitiruv malakaviy ishini qo'l ko'tarib tasdiqlab berishlaringizni so'rayman.

Kafedra a'zolari bir ovozdan yuqoridagi tavsiyani ma'qulladilar.

Q A R O R Q I L I N D I:

1. Mamanova Yulduzning «Alohida ehtiyojli kishilar bilan ijtimoiy ish olib borishda jahon tajribasini o'rganishning ahamiyati» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi tugallangan deb hisoblansin va himoya uchun tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri

Kotiba

dots.L.N.Jo'rayev

D. Xolova

**Samarqand davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti ijtimoiy ish
yo'nalishi bo'yicha 4-kurs talabasi Mamanova Yulduzning «Alohida ehtiyojli
kishilar bilan ijtimoiy ish olib borishda jahon tajribasini o'rganishning
ahamiyati» nomli malakaviy bitiruv ishi haqida**

MULOHAZALAR

Bozor munosabatlariga o'tishning ilk davridan boshlab aholini oldindan ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rib borildi. Shu maqsadda miqdori muntazam o'zgartirib turilgan ish haqi va pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar, kompensasiya to'lovlari tarzidagi pul to'lovlari, imtiyozlar turli dotasiyalar tarzidagi to'lovlarni joriy qilish usuli keng qo'llanildi.

Korxonalarining o'z xodimlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish sohasidagi xarajatlaridan bir qismi byudjet mablag'lari hisobidan qoplanib turildi. Keng iste'mol mollari va xizmatlarning ko'pgina turlari bo'yicha narxlardagi tafovutlarning o'rni davlat byudjeti hisobidan qo'plandi. Shu bilan birga qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlar ham joriy qilindi. Ushbu mavzuni dolzarbligini hisobga olgan holda uni yanada chuqurroq o'rganish uchun keyingi bosqichlarda ilmiy izlanishni davom ettirishni tavsiya qilaman.

Malakaviy bitiruv ishi 2 bob 4 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Malakaviy bitiruv ishining birinchi bobi «Alohida ehtiyojli kishilarni o'rganish – ijtimoiy ishning asosiy vazifalaridan biri sifatida». Birinchi bobning birinchi paragrafi «Alohida ehtiyojli kishilar haqida tushuncha» deb nomlangan. Unda Alohida ehtiyojli kishilarga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat davlatimizning ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Alohida ehtiyojli kishilar deganda biz jamiyatning yordamga muhtoj bo'lgan qatlamini anglamog'imiz kerak.

Malakaviy bitiruv ishining ikkinchi bobi «Alohida ehtiyojli kishilarni o'rganishda dunyo mamlakatlarining o'rni». Ikkinchi bobning birinchi paragrafi «Alohida ehtiyojli kishilarning G'arb jamiyatida o'rganilishi» deb nomlangan. Mavzuda Farb davlatlaridagi keyingi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy voqyealar inson va uning shaxsiy erkinligi, haq-huquqlari oliy maqsad ekanligi to'g'risidagi g'oyalarning yoyilishiga haqida ko'rsatib o'tgan

Malakaviy bitiruv ishida ayrim orfografik xatoliklar uchraydi, lekin bu kamchliklar ishni ilmiy saviyasini pasaytirmaydi. Ishni himoyaga tavsiya etsa bo'ladi.

Ilmiy rahbar:

ass.Tangirova M.

**Samarqand davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti ijtimoiy ish
yo'nalishi bo'yicha 4-kurs talabasi Mamanova Yulduzning «Alohida ehtiyojli
kishilar bilan ijtimoiy ish olib borishda jahon tajribasini o'rganishning
ahamiyati» nomli malakaviy bitiruv ishi haqida**

TAQRIZ

Hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlarda aholini ijtimoiy himoyalashning mohiyati davlat tomonidan belgilangan faoliyat turi yoki mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ijtimoiy kafolatlar majmui bo'lmoqda. Ushbu kafolatlar mamlakatning har bir fuqarosini (ba'zan har bir yashovchisini ham) ishsizlik, daromadlardan mahrum bo'lish, bola tug'ilishi, ishlab chiqarishda shikastlanish, kasbiy kasallikka chalinishi, nogironlik, keksalik, boquvchisidan ajralganlik va hokazolar oqibatidagi iqtisodiy va ijtimoiy tanazzuldan himoya qiladigan chora-tadbirlar tizimidan iborat.

Malakaviy bitiruv ishi 2 bob 4 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Malakaviy bitiruv ishining birinchi bobi «Alohida ehtiyojli kishilarni o'rganish – ijtimoiy ishning asosiy vazifalaridan biri sifatida». Birinchi bobning birinchi paragrafi «Alohida ehtiyojli kishilar haqida tushuncha» deb nomlangan. Unda Alohida ehtiyojli kishilarga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat davlatimizning ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi. Alohida ehtiyojli kishilar deganda biz jamiyatning yordamga muhtoj bo'lgan qatlamini anglamog'imiz kerak.

Malakaviy bitiruv ishining ikkinchi bobi «Alohida ehtiyojli kishilarni o'rganishda dunyo mamlakatlarining o'rni. Ikkinchi bobning birinchi paragrafi «Alohida ehtiyojli kishilarning G'arb jamiyatida o'rganilishi» deb nomlangan.

Malakaviy bitiruv ishida ayrim orfografik xatoliklar uchraydi, lekin bu kamchiliklar ishni ilmiy saviyasini pasaytirmaydi. Ishni himoyaga tavsiya etsa bo'ladi.

Taqrizchi

**SamISI «Ijtimoiy-gumanitar
fanlar» kafedrasini mudiri:**

dots.M.Bo'riyev

